

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

IKROMJON HABIBJONOV

**ADABIYOT DARSLIKLARIDAGI
TUSHUNILISHI QIYIN
SO‘ZLAR LUG‘ATI**

TOSHKENT – 2014

UO‘K: 37.013.42

KBK 30.3

H-77

H-77 I. Habibjonov. Adabiyot darsliklaridagi tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 120 bet.

ISBN 978–9943–4264–9–8

Adabiyot darsliklaridagi tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati birinchi marta tayyorlanmoqda. Unda so‘zlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida berilgan. Lug‘atga so‘z to‘plash va tanlashda maktab, litsey va kollej adabiyot darsliklarida qo‘llanilgan hamda mumtoz adabiy asarlarda uchraydigan 3500 ga yaqin tushunilishi qiyin so‘zlar asos qilib olingan.

Lug‘at oliv ta’lim muassasalari talabalari, maktab, litsey va kollej o‘quvchilari hamda abituriyentlar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 37.013.42

KBK 30.3

Mas’ul muharrir:

Rashid Shukurov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Isroiljon Po‘latov, Barnoxon Abdurahmonova,

Durdonaxon Zohidova – filologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar;

Hikmatxon Ahmedova – katta o‘qituvchi.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 2013 yil 29 noyabrdagi 3-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978–9943–4264–9–8

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

SO‘ZBOSHI

Yosh avlodni ruhan sog‘lom va yuksak ma’naviyatli qilib kamol toptirish ularni madaniy merosimizdan bahramand ravishda tarbiyalashni taqozo etadi.

Shu niqtai nazardan, adabiy merosimiz namunalari bo‘lgan mumtoz asarlarni o‘quvchilarga imkon qadar chuqur va ilmiy asosda o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyotda Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Uvaysiy, Nodira va ko‘plab boshqa ijodkorlar qalam tebratganlar. Ular o‘zlaridan nodir asarlar qoldirganlar.

Buyuk bobokalonlarimiz yozgan har qanday asar kishini ruhan yuksalishga, ma’naviy kamolot sari yetaklaydi.

Bunday o‘lmas, durdona asarlar maktab, litsey, kollej o‘quvchilari uchun chiqarilgan adabiyot darsliklarida ko‘plab berilgan.

Mumtoz asarlarda eski o‘zbek adabiy tiliga mansub atamalar va arxaik so‘zlarning ko‘p ishlatilganligi sababli o‘quvchilarda bu asarlar tarkibidagi ayrim so‘zlarning izohini tushunmaslik holati yuzaga keladi. Birgina so‘zning lug‘aviy ma’nosini anglamaslik asarning mazmuni to‘laqonli ochilmasligiga olib keladi.

Ana shuni hisobga olgan holda, lug‘at maktab, litsey va kollej o‘quvchilari, o‘zbek filologiyasi talabalari hamda abiturientlar, O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning asar tahlili jarayonida darsliklarning har joyida berilgan lug‘atlarni qidirib, qimmatli vaqtlarini yo‘qotmasliklari uchun harakat qilingan.

O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI

| | | | | |
|-----------|-----------|-----------|-----------|-------------|
| Aa | Hh | Nn | Tt | O‘o‘ |
| Bb | Ii | Oo | Uu | G‘g‘ |
| Dd | Jj | Pp | Vv | SHsh |
| Ee | Kk | Qq | Xx | Hch |
| Ff | Ll | Rr | Yy | NGng |
| Gg | Mm | Ss | Zz | |

A a

ABHAR - bo‘tako‘z, nargis (gul turi)

ABIR - anbar, ipor, yoqimli hid

ABLAQ - ikki rangli, ola-bula; oq-qora

ABR - bulut

ABRI NAYSON - ko‘klam buluti

ABRISHIM - ipak

ABROR - yaxshi kishilar, sofdil insonlar

ABTAR - kalta, qisqa, uzilgan; xunuk

ABYOT - baytlar

ADAM - yo‘qlik

ADAN - Arabistonagi kichik mamlakat nomi

ADDOI - duo qiluvchi

ADL - 1. Adolat; 2. Odilllik

A’DO - dushman

ADOQ - oyoq

ADUV - yov, dushman

AFGOR - jarohatlangan, majruh

AFLOK - falak, osmon so‘zining ko‘pligi (a - lar ko‘plik)

AFLOTUN - Platon yunon faylasufi

AFRUZ - yorituvchi

AFSAR - podsholik toji, jig‘a

AFSURDA - ruhsizlangan, so‘ligan, so‘lg‘in, ilviragan, tushkun, o‘nggan

AFTODA - zaif, nochor, yiqilgan; xor

AFVOJ - to‘dalar, guruhlar

AFZUN - ko‘p, ortiq

AFG‘ON - nola, fig‘on

AFSHON - sochuvchi. Mumtoz she’riyatda u yoqimli hid taratish, yanada go‘zallahish ma’nolarini anglatadi

AHBOB - do'stlar, yorlar, sevimlilar
AHAD - bir, yolg'iz
AHKOM - hukmlar, qonunlar
AHL - 1. Istiqomat qiluvchi; 2. Odamlar, guruh; biror toifaga mansub kishilar
AHLI AYOL - bola-chaqa
AHLI FAZL - fazilatli kishilar
AHLI FUNUN - hunar ahllari, bilimdonlar
AHLI HOL - hol ahli, kayfiyat kishilari, so'fiylarga ishora
AHLI MAONIY - ma'no ahli,fikrlovchi kishilar
AHLI TASAVVUF - so'fiylar
AHLI UBUR - keluvchilar, sayyoohlar
AHLI VUQUF - voqif, xabardor bo'lmoq
AHMAR - qizil
AHSANTA - ofarin, balli (yaxshi qilding)
AJAMIY - eronli
AJLOF - qo'pollar, bilimsizlar, go'llar
AJUN - olam, dunyo
AJUZ - 1.Qari, keksa; kampir; 2. Jodugar kampir
AJZ - ojizlik
AKBAR - eng ulug', eng katta
AKL - yemoq, yemish; ovqat
AKMAH - tug'ma ko'r
AKMAL - eng mukammal, eng yetuk
AKNUN - endi, endilikda
AKRAM - eng olajanob, eng saxiy
AKOBIR - ulug'lar, kattalar
AKS - teskari
AKSAR - ko'p, ko'pchilik, ko'pchilik qism
AKSIYA - paychiga beriladigan qimmatbaho qog'oz
AKTOF - yelka, kiftlar; chegara
AL I - qo'l

AL II - qizil

ALADDAVOM - doimo, hamisha

ALAF - o‘t, ko‘kat; yemish

ALAK - bo‘zning turi, olacha

A’LAM - bilimdon

ALAM - bayroq, tug‘

ALAMON - xonavayron, xarob

ALBISA - kiyimlar, liboslar

ALDARA - sarosimaga tushmoq, dovdiramoq

ALFOZ - so‘z. Lafzning ko‘pligi

ALHAQ - borliqning haqiqati, haqiqiy, bor, mavjud

ALHOL - hozirda, shu paytda

ALIF - arab alifbosining birinchi harfi; abjad hisobida 1 ga teng

ALIL - bemor, kasal, dardmand

ALIM - alamli, mashaqqatli, og‘ir

ALINING QILICHI - payg‘ambarimizning sahabalaridan biri hazrati Ali qilichining dami ikki tig‘li bo‘lgan

AL-JABR - algebra

ALLOHU AKBAR - Alloh buyuk

ALO - ogoh bo‘l, tingla

ALOLO - shovqin-suron, g‘avg‘o

AL’OMON - omonlik berish; omonlik berishga chaqiriq

ALP - botir, qahramon

ALQIM - shiddat, epkin

ALQOB - laqablar, tingla

ALTOF - lutflar, marhamatlar, yumshoqliklar, yaxshiliklar

ALVON - qizil ip gazlama; Rang-barang, turli-tuman

ALYOQ - eng loyiq, eng munosib

AMAVVUJ - mavjlanish

AMDO - qasddan, ataylab, jo‘rttaga

AMIN - ishonchli, to‘g‘ri; posbon

AMIQ - chuqur, teran

AMIYM - umumiy, omma, barchaga teng

AMLOK - mulklar, yer-suвлар, kishi tasarrufidagi buyumlar

AMN - tinchlik, omonlik

A'MO - ko‘r

AMORI - odam tashish uchun tuya yoki filga ortilgan kajava

AMRI MA'RUF - savob ishlarga da'vat qilish, yaxshilikka undash

AMVOJ - mavjlar, to‘lqinlar

AMVOL - mollar, narsalar

AMVOT - o‘liklar

ANBARAFSHON - anbar sochuvchi

ANBARBOR - anbar isi (xushbo‘ylik) sepuvchi; tim qora va muattar

ANDALIB - bulbul

ANDESH - fikr, o‘y; mulohaza qilmoq

ANDESHA - o‘y, xayol, mulohaza

ANDOM - tana, gavda

ANDOZA - 1. O‘lchov; 2. Miqdor

ANDUH - g‘am, qayg‘u

ANDUHGIN - g‘amli, alamlı

ANDUZ - oluvchi

ANFOS - nafaslar

ANGA TEGRU - ungacha

ANGUR - forslarda uzum

ANGG‘IB - kutib, poylab

ANGUSHT - barmoq

ANIS - do‘sst, yor

ANJOM - oqibat, oxir

ANJUM - yulduzlar

ANJUMAN - yig‘in, majlis, qurultoy

ANJUM SIPAHI - yulduzlar qo'shini
ANO I - mashaqqat, qiyinchilik, azob, uqubat, kulfat
ANO II - ona
ANOSIR - unsurlar (suv, havo, tuproq, o't)
ANQOGA SHAPIG' - nihoyatda tanqis, kam
AQD - bog'lash, nikohlash
AQIQ - qizg'ish rangli qimmatbaho tosh, lab ma'nosida
ishlatiladi
AQLI QOSIR – aqli zaif
AQRAB - chayon
AQRABOLAR - yaqinlar, qarindoshlar
AQVOL - so'zlar (qavl-so'z)
AR - agar
ARAB ALFOZI - arab tili; arab so'zları
ARBADASOZ - to'polonchi, g'avg'oga moyil
ARDAM - fazilat, oliy xislatlari
ARJUMAND - aziz, izzatli, obro'li
ARKON - ustunlar, tayanchlar
ARODA - arosatda qolgan
A'ROF - jannat va do'zax o'rtasi
AROZIL - eng past tabaqa; nokaslar
ARQASHIB - aralashib
ARQOSIDIN - orqasidan
ARSA - maydon
ART - tepa, dovon
ARUS - kelin
ARVAD - ayol, xotin
ARZ - yer shari
ARZI - eni, kengligi
ARZONIY - loyiq, muvofiq, muyassar
ARZ TO SAMO - yerdan osmongacha
ARG'UVON - qip-qizil bo'lib gullaydigan daraxt

ARG‘UVONIY - qizil gulli daraxt

ARIG‘SIZ - toza bo‘limgan, nopoliza

ASAR - alomat, nishon, iz, belgi

AS’HOB - do‘stlar, jo‘ralar

ASIG‘ - foyda, naf

ASM - juda ko‘p, benihoya, g‘oyatda

ASNO - vaqt, payt, holat

ASO - hassa

ASOLAT - ulug‘lik, zoti poklik

ASRA - saqla

ASROR - sirlar

ASRU - juda, haddan ziyod, ortiq darajada

ATFOL - tifl (bola)ning ko‘pligi

AT’IMA - taomlar

ATO - tuhfa, in’om

ATOGLIG‘ - maxsus, atalgan; taqdir

AUKSION - kimoshdi savdosi

AVBOSH - bebosh, sayoq bezori, daydi

AVHOM - qo‘rquv

AVIZO - hisob-kitob operatsiyasi

AVLI - eng yaxshi

AVLIYO - valiyning ko‘pligi

AVLO - yaxshi, afzal

AVOM - umum, omma, olomon, xalq, oddiy kishilar

AVROQ - sahifalar; barglar

AXBOS - yomon xususiyatlar, tubanliklar

AXGAR - qizarib yonib turgan olov; laxcha cho‘g‘

AXIY - birodar, oshna

AXTAR - yulduz

AXURA MAZDA - zardushtiylik dinining xudosi

AXZ - olmoq, egallamoq

AXZAR - ko‘m-ko‘k, yashil

AXZARVASH - yashiltob
AYLANDI BIRTEK - hayron bo‘lib aylanaverdi
AYLONDUR - aylantir
AYMON - qasamlar, va’dalar
AYMOQ - demoq, gapirmoq
AYN - ko‘z
AYN UI-HAYOT- hayot bulog‘i, hayot suvi
AYO - ey
AYOG‘ - oyoq
AYOLMAND - ko‘p bolali
AYOQ - qadah, soqiy va oyoq ma’nolarida kelgan
AYOQCHI - may quyuvchi, soqiy, kosagul
AYOYIN - aytayin
AYRU - 1. Ayrilgan, ajralgan; 2. Ayrilib, ajralib
AYSA - aytsa
AYYOB - ayblovchi
AYYOM - vaqt; fasl
AYYOMI FONIY - o‘tkinchi dunyo
AYYOSH - ishratparast
AYYUB - payg‘ambarlardan biri, badanini yara bosib,
 qurtlagan bo‘lsa-da, chidagan va xudoning
 inojati bilan tuzalgan, **sabr** timsoli
AYSH - kayf-u safo, ishrat
AYSHI TIYRA BO‘LMOQ - kayfiyati buzilmoq
AZAL TOG‘I - doimiylik tog‘i, qismat
AZBAR - yoddan, yodaki
AZBAROYI - uchun, sababli
AZBASKI - chunki, shuning uchun
AZIMUL JUSSA - katta jussali
AZL - bo‘shatish, mansabdan tushirish
AZM - kirishish, harakat
AZMANAIY QADIMDAN - eski zamonlardan

AG‘LAB - ko‘p, aksar; ko‘pchilik

AG‘NIYO - boylar, badavlat kishilar

AG‘ROZ - moddalar

AG‘YOR - begonalar; boshqalar, g‘ayirlar; raqiblar

ASHA - haqiqat timsoli. Sraosha uning hamrohi.Ular kishilarni yaxshilikka undovchi ma’budlardir (“Avesto” da)

ASHAL - eng oson, qulay

ASHJOR - daraxtlar, og‘ochlar

ASHK - ko‘z yoshi

ASHKBOR - ko‘z yosh to‘kuvchi, yig‘lovchi

ASHKOL - shakllar

ASHK XUN - ko‘z yoshim qon

B b

BABR - yirtqich hayvon, cho‘l arsloni

BADADO - qo‘pol so‘zli, achchiq tilli

BADAL - evaziga beriladigan narsa

BADALAF - sassiq o‘t; sassiq, badbo‘y

BADKOR - yomonlik qiluvchi

BADNOM - yomon otliq

BADO - musiqa asbobi

BADR - to‘lin oy

BADV - boshlanish, ibrido

BADXOH - yomonlik talabgori, yovuz niyatli

BADXO‘ - badfe‘l, qilig‘i yomon

BAHAR RANGE - har qalay

BAHORIYOT - bahor ta’rifiga bag‘ishlangan she’rlar

BAHOYIM - hayvonlar

BAHR - daryo, dengiz

BAHRAMAND - babra oluvchi, manfaatdor

BAHRAYN - bahrning ikkiligi, ikki dengiz
BAHRI MAVJVAR - mavjlangan dengiz
BAHRI XUDORO - xudo haqqi
BAHR-U BAR - ho‘l-u quruq; yer va suv; butun dunyo
BAID - uzoq, yiroq
BAJID - jiddiy
BAJO - 1. O‘rniga, joyiga; 2. O‘rinli, mos keladigan
BAK - ko‘pchilikka choy qaynatishga mo‘ljallangan idish
BAKALAVR - to‘rt yoki besh yillik oliy ma’lumot tizimi
BAKOVUL - bosh oshpaz
BALDAYI MAHFUZA - qo‘rg‘on shahar
BALE - ha, barakalla singari tasdiq ma’nosini bildiradigan so‘z
BALIYAT - musibat, ranj, mashaqqat, balo
BALOJO‘Y - badbaxt, balo tilovchi; oshiq
BALOSHO‘R - balo keltiruvchi
BALVA - joy nomi
BAND - bog‘lash
BANDA - tobe, itoatchi
BANDANAVOZ - rahmdil, mehribon
BANDI - duoli yozuv, tilsim
BANDIGA OLGAN - asirga olgan
BANGA - menga
BANGI - nashavand, kashanda
BANI BASHAR - odam farzandi
BANKROT - qarzini to‘lashga qurbi yetmagan korxona, savdogar
BANOOGAH - kutilmaganda, daf’atan
BANOOGOH - birdan, to‘satdan
BANOOGO‘SH - qulinq solinchog‘i, sirg‘asi
BAQAR - mayda pul ma’nosida
BAQO - davom etish, saqlanish

BAQQOLI DUZDI BADBURUT - baqqoli shop mo‘ylovli
o‘g‘ri kishi ekan,
demoqchi

BARAHNA - yalong‘och, hamma yog‘i ochiq

BARAK - chuchvara

BARAKLAR - hasharchilar uchun paxtazorning o‘rtasiga
quriladigan harbiycha omonat bino

BARDOR - ko‘tarish

BARF - qor

BARGASHTA - qaytgan; omadi ketgan, omadsiz

BARHAMZAN - yo‘qotuvchi, ostin-ustun qiluvchi, nobud
qiluvchi

BARIMTA - garovga, kafilga olish

BARIY - pok, toza; holi, ozod

BARKAS - katta qayiq

BAROAT - poklik, begunohlik; fazilat

BARON - uning ustiga

BAROR KELMAS - mos, muvofiq kelmas

BAROT - yorliq

BARPOY - tik oyoqda turish

BARQ - chaqmoq

BARRI ARAB - Arab yeri

BARUMAND - bahramand, foydalanuvchi

BARXURDOR - baxtli

BARCHIN - ipak

BASAR - ko‘z; ko‘rish, ko‘ra olish quvvati

BASE - juda

BASTA - bog‘liq, band, bog‘langan

BASTAI BALO - baloga yo‘liqmoq

BATANG - tang, siqiq, tor

BATONS - narsalarning o‘zaro muvofiq salmog‘i

BATSIQ - g‘arb

BAXSHISH - marhamat

BAYONNOMA - rasmiy bayonot, tushuntirish

BAYRAM OYI - yangi chiqqan oy

BAYT UL-HAZAN - g‘am uyi

BAYTULLOH - tangri uyi, Ka’baning yana bir nomi

BAYZO - oq; ravshan; pok, sof

BAZL - in’om, saxiylik

BAZMAFRO‘Z - bazmni qizitmoq, bazmni avjlatmoq

BAZMI MAJOLIS - ilohiy ishq bazmi

BAZRAM - bayram

BAZZOZ - gazlama sotuvchi savdogar, gazlamafurush

BAG‘AYRI NILUFAR - Nilufardan boshqa

BAG‘OYAT - g‘oyatda, juda, nihoyatda

BASHAR - odamzod, insoniyat

BACHALAR - bolalar, bolachalar

BEANDOZA - cheksiz, chegarasiz

BEBOK - beparvo

BEDIL- dilsiz, ya’ni birovga oshufta. Ko‘pincha Majnun ko‘zda tutiladi

BEDOD -adolatsiz, zo‘ravon

BEDORDIL - qalbi, shuuri uyg‘oq

BEGARONA - cheksiz, bahosiz, hadsiz

BEHBUD - yaxshiliq, sog‘liq, sog‘lomlik (foyda, najot)

BEHISHT OSO - jannatga o‘xshash

BEHROQ - yaxshiroq

BEIRODAT - beixtiyor

BEISHTIBOH - xatosiz, gumonsiz

BEKAS - hech kimi yo‘q; yolg‘izlik, g‘ariblik (kas – odam)

BEKIN - kabi, day

BEMADORO - murosasiz, kelishmasdan

BEMAJOL - ojiz, kuchsiz

BEMOYA - sarmoyasiz

BEMUHOB - parvo
BENAVO - baxtsiz, sho‘rpeshana
BENAZIR - tengsiz, o‘xshashi yo‘q
BEQAYD - erkin
BERIYOZAT - mashaqqatsiz, qiyonoqsiz, azobsiz
BERMON - bermayman
BESAR-U PO - besaranjom, ovora
BESUTUN - 1. Osmon; 2. Erondagi tog‘ nomi
BEXONUMON - uy- joysiz, darbadar
BEXOR - tikansiz
BEXUD - o‘zidan ketgan, hushsiz
BEZOBITA - tartibsiz
BESHA - o‘rmon, to‘qay
BESHUMOR - sanoqsiz, ko‘p
BHAQTIYLAR - adolatparvar xalq harakatining ishtirok-chilari
BIAYNIH - go‘yo, xuddi, kabi
BIBI UBAYDA - avliyo ayollardan
BIHAMDILLOH - Allohga maqtov
BIHISHT - jannat
BIHISHTSARO - jannat yer, jannat joy
BIHOR - dengizlar
BIKR - qiz bola; toza, bokira ma’nosida
BILIG - bilim
BILKUL - butunlay, tamomila
BILLOH - xudo haqqi
BILMON - bilmayman
BILURG‘OY - bilinadi, ko‘rinadi
BINNI - o‘g‘li
BINONING TARXI - bino proyekti, plani
BINOYI XAYR - xayrli (yaxshi) qurilishlar
BIR NAV’I - bir narsa qilib

BIR SHAR'IY - 5-6 kilometrga teng masofa o'chovi

BISTAR - ko'rpa, to'shak

BISYOR- ko'p

BITIG - yozma, yozma asar

BIYIK - ulug‘, buyuk

BIYM - qo'rquv

BIYOBON - dasht, cho'l

BIZNES - foyda orttirishga qaratilgan ish

BIZNESMEN - biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs

BOBARG - bargli

BOD - shamol

BODA - sharob, may

BODAYI NOB - qizil sharob

BODI SABO - tong shamoli, mayin shabada

BODI XAZON - xazon yeli; kuz shamoli

BODIYA - cho'l, dasht, biyobon, sahro

BODPOY - yeloyoq, tez ma'nosida

BOHAM - birga

BOHUNAR - hunarli

BOHUSH - es-hushli

BOJ - savdo solig‘i

BOK - qo'rquv, xavotir

BOL AFSHON - qanot qoquvchi

BOL AVAZ - Avazning «asalday shirin» ma'nosini bildiruvchi laqabi

BOLO - balandlik

BOM - tog‘ ma'nosida

BOQA - qaraganda

BOQIY - davomli, uzlucksiz, abadiy

BOR - yuk

BORGOH - faqir so'fiylar, ishq ahlining manzilgohi

BORKASH - yuk tashuvchi

BOT - tez, ildam, darrov
BOTAMIZ - tamizli, mazali
BOTAYI HAQ - haqning sovg‘asi
BOTIL - nohaq, noto‘g‘ri
BOTIN - ich, ko‘ngil
BOV - bog‘; shox; urug‘
BOVAR - ishonarli
BOVAR QILMOQ - ishonmoq
BOVLI - boylam, dasta
BOVUJUD - shunday qilib, shunday bo‘la turib
BOXTAR - G‘arb, g‘arb tomon
BOZIGAR - firibgar
BOG‘I ERAM - afsonaviy jannat bog‘i
BOG‘I ZAKO - aql bog‘i
BOG‘OT - bog‘lar
BOG‘CHAI DAHR - dunyo bog‘i
BROKER - rasmiy dallol
BUD - borlik, mavjudlik
BUDAY - bug‘doy
BUDJET - kirim-chiqim hisobi
BUD-NOBUD - bor-yo‘q
BUDUN - xalq
BUL’AJAB - eng qiziq, ajoyib
BULBULOSO - bulbulabiat, bulbuldek, bulbul singari
BULMISH - qo‘lga kiritilgan
BULMOQ - topmoq
BULNA - asir qilmoq, qo‘lga olmoq
BULON - yovvoyi ot
BULOSHQAY - buloqday oqadi
BULG‘AB - silkitmoq; imlamoq, undamoq
BUM I - boyqush
BUM II - zamin, yer, quruq joy

BUMI MANHUS - badbaxt boyqush
BUQO - to‘n
BURHON - dalil, hujjat, guvoh, dastak
BURJ - qal‘a va qo‘rg‘on burchaklariga quriladigan bino
BURQA - yuzga tutiladigan pardas, niqob, hijab
BURUDAT - sovuq
BURUT - mo‘ylov, murut
BUTI MAHVASH - oy yuzli but, oydek sanam
BUTI SIYMINBAR - kumush tanli sanam
BUTRADJ - tarqaldi, ketdi
BUTRAT - tarqat
BUTROTMOQ - tarqatmoq, to‘zitmoq, parokanda qilmoq
BUXL - baxillik
BUXOR - bug‘, tuman
BUYIR - biqin
BUYLA - bunday
BUYURTMA - biror narsani ishlab berish haqida topshiriq
BUZRUG - ulug‘, katta
BUZULUB - xafalanib, ko‘ngli buzilib
BUG‘Z - g‘azab
BO‘GU - dono
BO‘KTARMOQ - egar orqasiga bog‘lamoq
BO‘RK - telpak
BO‘Y-BO‘Y - bo‘yga yetgan, yetilgan qizlar
BO‘ZA - dondan tayyorlanadigan kayf beruvchi ichimlik

D d

DA‘B - odat, qiliq, xislat
DABIR - kotib (ko‘k dabiri - Atorud sayyorasi)
DAF - qaytarish, ketkazish
DAFI - qaytarish, rad etish

DAFOTIR - daftarlar

DAFOYIN - dafinalar, ko‘milgan (dafn qilingan) boyliklar

DAHR - dunyo, olam, zamon, davr

DAHRI DUN - pastkash dunyo

DALER - qo‘rqmas

DALIL - isbotga asos bo‘lgan narsa

DALLAYI MUXTOLA - makkora, qo‘shmachi

DALOL - noz, karashma

DAM - nafas

DAM-BADAM - uzliksiz, har doim

DAMODAM - dam-badam, uzliksiz, ketma-ket

DAM QILMOQ - diqqat qilmoq, (bo‘g‘ilmoq)

DANGONA - ulfatchilik joyi

DANI - past

DAR - eshik

DARANG - sekinlik

DARANG BO‘LMOQ - to‘xtamoq

DARBADAR - daydi, sayoq

DARBAND - darvoza, eshik oldi, qal’a

DARDISAR - boshog‘rig‘i

DARD QILMOQ - tashvishga tushmoq

DARIG‘ - pushaymon, achinish

DAR GO‘SH - qulqoqda

DARMONDA - hayron, qiyin ahvolda qolgan; nochorlikda,
aro yo‘lda qolgan

DARUN - ich, ichki

DARVESH - 1. Faqir, yo‘qsil; 2. Tariqatda faqirlilik yo‘lini
tutgan

DARXON - ozod etish

DAST - qo‘l

DAST BERMOQ - muyassar bo‘lmoq, erishmoq, hosil
bo‘lmoq

DASTOMUZ - qo‘lga kiritilgan, qo‘lga o‘rgatilgan

DASTOR - salsa

DASTRAST - qo‘li tegmoqlik

DAST TOPMAG‘ON - qo‘lga kiritmagan

DAST TOPMOQ - qo‘lga olmoq

DAVISQINCHA - oxirigacha

DA’VIYI SHAR’IY - shariat yuzasidan da’volashmoq

DAVLATI MIL-MIL - boyligi to‘lib-toshib yotibdi ma’nosida

DAVLATXOH - xayrxoh, do‘st

DAVR - oraliq, aylana

DAVRON GARDISHI - davrning aylanishi, ya’ni zamonning zayli, tuzumning sharoiti

DAVVOR - aylanuvchi

DAXL - aloqa, aralashish

DAXLI BEJO - o‘rinsiz aralashish

DAYR - butxona, ko‘chma ma’noda, mayxona va umuman dunyo

DAG‘DAG‘A - do‘q, po‘pisa

DAG‘I - 1. Tag‘in, yana; 2. Hamda

DEGUL - emas

DEKLARATSIYA - 1. Hukumat bayonoti; 2. Chegaradan olib o‘tish uchun ariza; 3. Daromad to‘g‘risidagi ma’lumot

DELVAGAY - yengil

DEVONAVOR - devonalarcha

DIGAR - o‘zga, boshqa

DILAFGOR - dili xasta, dili vayron

DILAFRO‘Z - shod qiluvchi, ko‘ngil ochuvchi

DILBAR - ko‘ngil eltuvchi, mahbub

DILFIZO - ko‘ngilni quvontiruvchi

DILGIR - ranjigan, xafa, bo‘g‘ilgan

DILJAM - xotirjam, qat'iyatli, o‘ziga ishongan
DILJAMLIQ - xotirjamlik, ko‘ngli to‘qlik
DILKASH - diltortar, yoqimli, jozibali
DILKASH ILHON - yoqimli ovozlar, ashulalar, xonishlar, sayrashlar
DILKUSHO - ko‘ngil ochuvchi
DILOGIYA - ikki kitobdan iborat asar
DILOSOY - ko‘ngil ovlovchi, yoqimli
DILOVAR - qo‘rqmas, botir
DILSITON - dilni oluvchi, ko‘ngilni o‘ziga asir etuvchi, dilbar, ko‘ngil ovlovchi
DILTANGLIK - ko‘nglitorlik; labning g‘uncha singari kichikligiga, g‘unchaning yurak kabi ixcham shaklga egaligiga ishora bor
DILXOH - ko‘ngil istagan, yoqimli
DIM - aslo, mutlaqo
DIRAM - dirham (kumush tanga)
DISKETA - magnitlangan egiluvchi disk
DIYAT YO QISOS - xun puli yoki qasos
DIYDA NAMNOK - ko‘zi yoshli
DIYDABON - kuzatuvchi, poyloqchi
DIYDAYI GIRYON - yig‘layotgan ko‘z, yig‘loqi ko‘z
DIYDOR - yuz, chehra, visol
DIZ - qo‘rg‘on, qal‘a
DOBON - dovon
DOD -adolat
DODAR - ini, uka
DODXOH - arz-dodga keluvchi, eshituvchi
DOFI' - daf qiluvchi
DOIYA - orzu, istak, maqsad
DOL - dalil, dalolat
DOLU - to‘r, tuzoq

DOM - tuzoq
DOMAN - etak
DOMANA - etak
DOMANASIDA - etagida
DOMINGDAN - tuzog‘ingdan. Qo‘lingdan ma’nosida ham keladi
DOMOD - kuyov
DOMON - etak
DONISH - ilm, ma’rifat, aql, idrok
DONISHOYIN - donishmand
DONISHVAR - dono, donishmand
DORIR EDI - uchrardi
DOROYI - egasi, boshlig‘i
DORULQAZO - qozixona
DOSTONOROLIG‘ - dostonchilik, doston aytuvchilik
DOTATSIYA - davlat tomonidan beriladigan pul, yordam
DOXIL - tarkibi
DOG‘I - yana, ham
DRUJINACHILAR - tartib saqlash ishida ko‘ngilli bo‘lib qo‘shilganlar
DUBLIKAT - asl nusxaning ko‘chirmasi, kopiyasi
DUBULG‘A - tig‘ yoki o‘qdan saqlanish uchun temir yoki po‘latdan ishlangan bosh kiyimi
DUD - tutun
DUN - past, razil
DUR - marvarid
DURAFSHON - dur sochuvchi
DURAHD - ahdiga amal qilmaydigan
DURAR - durlar, marvaridlar
DURBOR - dur yog‘diruvchi, qimmatli so‘z aytuvchi
DURBOSH - tahdid
DURD - quyqa

DURDONA - marvaridning bir donasi
DURFISHONLIG‘ - dur sochish; yosh to‘kish
DURJ - 1. Qimmatbaho toshlar solinadigan quti. 2. Og‘iz.
3. Ko‘ngil
DURNISOR - dur sochuvchi
DURPOSH - dur kabi sochilgan
DURRI G‘ALTON - yumaloq dur
DURRI SAMIN - qimmatbaho gavhar
DURROJ - kaptarning bir turi, qirg‘ovul
DURUD - duo, olqish, salom, tahsin
DURUSHT - dag‘al, notekis
DUTO - bukilgan, egilgan
DUSHMANKOMLIG‘ - dushman, dushmancha
DUSHVOR - og‘ir, mushkul
DO‘GAR - to‘kar
DO‘NGTARMOQ - yelkasiga do‘ng tomonini sirtiga qilib,
to‘ntarib osib olmoq
DO‘NMOQ - aylanmoq
DO‘G‘MALARI - amaldorlari

E e

EDAR - etar
EGAMANLIK - mustaqillik
EGILIGINI - rohatini, orzu-havasini
EGN - yelka
EHMOL - qiyinchilik, mashaqqat
EHTIMOM - ahamiyat berish
EHTISOB I - taqiqlash
EHTISOB II - hisob-kitob, tahlil
EHTISOB AHLI - taftishchilar
E’JOZ - mo‘jiza

EKINCHI - dehqon
ELATIYA - ko‘chmanchi chorvadorlar
ELIG - hukmdor
ELINDA - qo‘lida
ELLARI - xalqi, odamlari
E’LOM - bildirmoq
EL-TO‘RU - adolat; qonun-qoidalar
EMGAK - mehnat, mashaqqat
EMGANUR ERDIM - qiynalardim
EMIN - tinch, xavfsiz
ENG - yuz, yanoq
ENGAY - kelish, qo‘nish, mehmon bo‘lish
ENGLIK - elik, upa
EPI - sharob, bo‘za
ERDAM - nomusi, ori
ERGANAK - eshikning tepa qismi
ERHUBBI - islomgacha bo‘lgan davrdagi avliyo
ERIK - mard, botir, erkin
ERIN - lab
ERKINLASHTIRISH - liberallashtirish, yumshatish
ERTAMOQ - o‘tib ketmoq
ESIZ - yomon, yovuz
ETDIGUMDANDIR - etganimdandir, qilganimdandir
E’TIDOL - mo‘tadil
E’TIMOD - ishonch
EV - uy
EVRILMAS - aylanmas
EVRULMOQ - aylanmoq, o‘girilmoq
EZID - Allah
E’ZOZ - qadrlash, hurmat

F f

FAHMI OGAH - xushyor aql

FALAKTOZ - falakka chopuvchi, ko‘kka ko‘tariluvchi

FAN - hunar

FANO OMODA BO‘LDI - yo‘qolishga tayyor bo‘ldi
(o‘lar holatga yetdi)

FAQIH - din ilmi bilimdoni

FAQIR - o‘zini kamtarlik bilan aytish

FAQR - kambag‘allik, yo‘qsillik; kamtarlik

FARAH - shodlik, quvonch

FARAHGUSTAR - quvontiruvchi

FARANG - yevropali ko‘zda tutiladi

FARD - yakka, yolg‘iz, ajralgan

FARHOD - bu so‘z afsonaviy Farhodning sifatlari: tog‘ qazuvchiligi, qahramonligi, sabot, matonatini ifodalaydi

FARIDUN - qadimgi Eron podshosi

FAROMUSH - har qanday vaziyatda ham og‘ir bo‘lish,
o‘ch olishga urinmaslik

FAROZ - balandlik

FAROG‘ - tinchlik, xotirjamlik, rohat, istirohat; bo‘shash,
ozodlik

FAROG‘AT - osudalik, tinchlik

FARR - go‘zallik; dabdaba, hashamat

FARROSH - supurib-sidiruvchi

FARRUX - baxtli, saodatli, omadli

FARRUXOYIN - yaxshilik keltiruvchi, baxtiyor qiluvchi

FARSUDA - to‘zigan, ezilgan; horg‘in, holsizlangan,
qiynalgan

FARXUNDA - qutlug‘, saodatli, baxtli, quvonchli

FARXUNDAROY - dono, oqil

FARZ - bajarilishi zarur bo‘lgan ish

FARZONA - donishmand

FARSH - qoplama; to‘shash, yotqizish

FASIL - devor ma’nosida

FASOD AHLI - buzg‘unchilar, haq yo‘lidan aynigan, imonini yo‘qotgan toifa; qalandarga raqib toifalardan

FASONA - afsona

FASONASIN BUNYOD - sarguzashtini, hikoyasini aytdi

FATGON - fitna qiluvchi

FATH - g‘alaba

FATONAT - zehn

FATTON - fitnagar; maftunkor, jozibali

FAG‘FUR - tarixan Xitoy xoni Pog‘dixon

FASH - sallaning pechi

FASHU DASTOR - salla va pechi

FIKAN - soluvchi, tashlovchi

FILHAQIQAT - darhaqiqat, haqiqatan

FILHOL - darhol, o‘sha zahoti

FILMASAL - misol uchun

FILOLOGIYA - so‘zni sevish, til bilimi

FIPOG‘URSLARI - qadim yunon olimlari

FIRDAVS - bog‘, jannat bog‘i

FIRDAVS BOG‘I - jannat bog‘i

FIRDAVSI A’LO - jannat

FIRIBOMEZ - yolg‘onsifat

FIROQ - ayriliq

FIROR - qochish

FIRUZ - g‘olib, baxtli

FITNA - g‘avg‘o, to‘s-to‘polon; bosh ko‘tarish, qo‘zg‘alish

FITNA BO‘LDI BAND KUSHOY - isyon (ish) siri oshkor bo‘ldi, yechildi

FITRAT - tug‘ma tabiat

FO‘LOD - po‘lat; o‘tkir, tez

FONI(Y) - yo‘q bo‘luvchi; tasavvufda so‘fiylikning fano maqomiga erishgan kishi; bu dunyodan kechgan odam

FOQA - kambag‘allik

FORIG‘ - tinch, xotirjam, ozod, holi

FORIG‘DIL - bemalol, ko‘ngli xotirjam

FUNDAMENTAL - asosiy ma’nosida

FUNUN - fanlar

FURQAT - firoq, ayriliq, judolik, yordan yiroqlik

FURUG‘ - shu’la, porloqlik

FUSAXOLAR - so‘zga chechan odamlar. Go‘zal so‘zlovchilar

FUTUH - g‘alaba, xushnudlik

FUTUR - halokat, shikast, zarar

FUZUN - ortiq, ziyoda, ko‘p

FO‘TA - ipak o‘rama belbog‘

G g

GANJ - oltin, boylik, kumush

GANJI ROZ - sirli xazina

GARDAN - bo‘yin

GARDANSHIKASTA - bo‘yni egik

GARDON - aylanadigan

GARDUN - osmon, falak; dunyo, olam

GARDUNI DUN - teskari falak

GARDUNI NOFARJOM - oqibatsiz, bevafo, notugal falak

GARM - issiq; qiziq, qizg‘in

GARMOBA - hammom; issiq suv

GARON - 1. Og‘ir, vazmin; 2. Qimmatbaho, qadrli

GAVDA XAR - eshak gavdali
GAVHARAFSHON - gavhar sochish
GAZAND - zarar, ziyon-zahmat, ofat
GAZOF - bema'ni, behuda
GASHT - aylanish, kezish, sayr etish
GESUYI MUSALSAL - halqasimon, zanjirsimon, jingalak soch
GETINAMO - olamni ko'rsatuvchi
GEZ - vaqt, kez, payt
GIRD - atrof
GIREH - chigal, tugun
GIRIBON - kiyim yoqasi
GIRIBON CHOK - yoqasi vayron
GIRIFTOR - yo'liqqan, uchragan, asir bo'lgan, band bo'lgan
GIRIH - tugun, chigal
GIRIHGIR - tugunli
GIRYON - yig'lovchi, yig'lab turgan
GISU - soch
GIZO - oziq, yegulik
GOM - qadam, odim
GORODOVOY - rus soqchisi ma'nosida ishlatilgan
GOV - ho'kiz
GUDOZ - eruvchi, kuyuvchi
GUHAR - gavhar
GUHARPOSH - gavhar sochuvchi
GUHARREZLIK - yoqimli, ko'ngilochar so'zlar so'zlash
GULAFSHON - gul sochuvchi. Yerda lirik qahramonning qonli ko'z yoshlari gulbargdek sochilgani
GULBOG' - gulzor, chamanzor
GULBONG - baland, yoqimli ovoz, bulbul ovozi
GULBUN - gul butasi (tupi)

GULBUNI UMMID - umid niholi
GULBO‘TA - asli gilbo‘ta. Ta’msiz mayin tuproq
GULFISHON - gul sochuvchi
GULFOM - gulrang
GULGUN - gulrang, qizil
GULGUNPO‘SH - qizil (gulgun) kiygan
GULRUX - gul yuzli
GULRUXSORA - gul yuzli
GUL-U NASTARAN - gul va nastarin
GULUZOR - gul yuzli
GULXAD - gul yanoqli
GULCHEHR FURQATI - gul yuzlidan ayriliq
GUM - yo‘qolish
GUMOSHTA - noib, vakil
GUMRAH - yo‘ldan adashgan
GUNA-GUNA - xilma-xil
GUNASH - quyosh
GUNOGUN - rang-barang, xilma-xil
GURNNOM - nom-nishonsiz
GUSTOX - sur, yuzsiz
GUZAR AYLAMOQ - kechmoq
GUZAR - o‘tish, o‘tmoq
GUZIR - chora, iloj; qutilish
GO‘JA - kelida tuyilgan makka yoki bug‘doydan tayyor-lanadigan suyuq ovqat
GO‘Y - daryo nomi
GO‘YI SIYMIN - kumush koptok
GO‘SH - qulqoq
GO‘SHA - burchak, chekka
GO‘SHMOL - qulog‘ini burash, tanbeh berish
GO‘SHOVIZ - qulqoqda osig‘liq, sirg‘a

H h

HABIB - do'st, sevikli

HABSLAR - qamaluvchilar, mahbuslar

HADAF - nishon

HADAFDUR XORA - qattiq toshdan iborat nishon

HADIS I - shuhrat, ovoza

HADIS II - so'z

HAKAM - arbitr; kelishtiruvchi, nizolarni hal qiluvchi

HAKIM - 1. Faylasuf; 2. Donishmand, alloma; 3. Tabib

HAKIMI HOZIQ - bilimdon tabib

HAL - aralash; ezilgan, tuyilgan

HALLI - hal qilinishi

HALQA - taroveh namozi qatnashchilarining ommaviy
qur'onxonlik marosimi

HALQAYI USHSHOQ - oshiqlar halqasi

HAMD - maqtov, olqish

HAMIN BAS - shu yetarli

HAMMOL - yuk tashuvchi mardikor

HAMNISHAST - birga o'tiruvchi, hamsuhbat

HAMNISHIN - birga o'tirganlar

HAMOQAT - ahmoqlik

HAMOYILLAR - qo'ltiq tagidan o'tkazib taqiladigan
yomon ko'zdan asrovchi toshli tumor,
bezaktosh

HAMUL - o'sha, shunday, xuddi o'zi

HAMZABON - tildosh; dildosh

HANGOM - chog', payt; g'animat payt

HANGOMI SAFO - soflik vaqtি

HAP YOTAVERADI - indamay, ovozini chiqarmay

HAQIR - bechora; tuban, past, xor

HAQOYIQ - haqiqat

HARAM - 1. Kirish ma'n etilgan joy, ichki hovli yoki uy;
2. Urush, o'ldirish, mol so'yish ma'n etilgan
muqaddas joy; Ka'ba

HARDBON - narvon, zina

HARIF I - raqib, bas kelguvchi, dushman

HARIF II - sherik; o'rtoq, ulfat

HARIM I - dargoh

HARIM II - haram

HARIMI VASL - vasl harami

HARIQ - kuyuvchi, yonuvchi

HAROS - qo'rquv

HARROF - so'zchi, chechan

HARZA - behuda, bekorchi so'z

HARZAGO'Y - sergap

HASIN - o'tib bo'lmaydigan; mustahkam

HASSOS - hissiyot, chuqur tuyg'u

HASUD - hasad qiluvchi, yomon niyatli

HAVL - qo'rquv

HAVO I - kibr

HAVO II - ob-havo, iqlim

HAVODIS - hodisalar, voqealar, o'zgarishlar, yangiliklar

HAVODORLIQ - takabburlik

HAVOPARVARD - 1. Orzumand. 2. Parvozni istovchi

HAYOTAFZO - hayotni yashnatuvchi

HAYRAT ETMON - ajablanmayman

HAYVON - tiriklik, hayot

HAYVON SUYI - tiriklik suvi (afsonaviy suv)

HAYYOTI GARDUN - osmon chodirdo'zi

HAZIN - qayg'uli, mungli, g'amgin, hasratli

HAZIN BANDA - shoir dardchil o'zligini shunday ifoda
bilan anglatgan

HAZIRA - xilxona, alohida joy (masalan qabristonda)

HAZIZ - pastroq, sekinroq
HAZORDASTON - bulbul
HAZRATIDA - huzurida, oldida
HASHR - to‘planish, yig‘ilish; o‘lganlarning qayta tirilish payti
HECHKAS - hech kim
HIFZ - saqlash, muhofaza qilish
HIFZI JON - jonni saqlash tumori
HIJOB - parda
HIJRAT QILMOQ - ko‘chib ketmoq
HIJRON - ayriliq
HIJRON QAFASI - tana, gavda ko‘zda tutiladi
HIKMATMAOB - hikmatparast
HILM - muloyimlik
HILOL - yangi yarim oy
HILOL ABRO‘- hilol (oy) dek qoshli
HINDUSTON MAXSUSI - Hindistondagina bo‘ladigan
HIRFAGAR - kasb egasi, hunarmand
HIRI - Hirotning erkalatma shakli
HIRMON - mahrumlik, bebahralik, benasiblik; umidsizlik
HIRQAT - kuyish; g‘am, qayg‘u
HIRZI JON - jonni saqlovchi tumor
HISNI - qo‘rg‘on, qal‘a, istehkom
HISOR - qo‘rg‘on, qal‘a, istehkom
HODIY - to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi
HOJAT - zaruriyat, ehtiyoj
HOKIM - hukmdor
HOKSOR- 1. Kamtarin, oddiy, sodda; 2. Xor, tuban
HOLA - oyning qo‘rg‘onlashi
HOLI - ravish
HOLO - hozir, endilikda
HOMIL - eltuvchi

HOSID - hasadchi, birovning yutug‘ini ko‘rolmaydigan kishi

HOSILI DUNYO - dunyoda orttirgan narsasi, ishongan boyligi

HUB(B) - don, dona

HUBBUL VATAN - vatan muhabbatি

HUBOB - ko‘pik; suv yuzidagi pufakcha

HUDAYCHI - arzgo‘y bilan hukmdor o‘rtasida turadigan mansabdar

HUDHUD - sassiqpopishak

HUDUD - had(d)ning ko‘pligi; chegara, joy

HULLA - nozik va nafis kiyim; mato

HUMO - baxt qushi; davlat qushi

HUMOYUNFOL - kelajagi qutlug‘, baxtli

HUNARDUSHMAN - hunarni, san’atni sezmaydigan

HUQQA - quticha

HUQQAYI YOQUT - yoqut quticha

HUR - jannat qizi; pari

HUVALBORI - ul tangri, ul yaratguchi

HUVAYDO - aniq ko‘rinib turadigan; aniq, ravshan

HUY - huy tortib nola chekmoq

HO‘Y - fig‘on

I i

IBLOG‘ - yetkazish, aytish

IBO - tortinish, ko‘nmaslik, uyat, hayo

IBRIQ - choydish, oftoba

IBTIDO - boshlanish

IDBOR - baxtsizlik, omadsizlik

IDMON - mashq, bir ishni doimiy takrarlab turish, bajarish

IFLOS - qashshoqlik, pulsizlik, sinish, hech narsasi qolmaganlik, muhtojlik

IFO ETISH - ado etmoq, bajarmoq
IFROT - haddan ortiq
IFSHO - fosh qilish, ochish, oshkor qilish
IGLIK - kasal, betob
IHTIROQ - yonish, alanga
IJOBAT - qabul
IJTINOB - o‘zni tortmoq, qochmoq
IKKI BANDI O‘Q - ikkitagina tutqun
IKKI YONI - ikki yoy (kamon)ni
IKROH - jirkanish, xunuk hisoblash; istalmagan, yomon ko‘rilgan ishni majburan bajarish yoki bajartirish
IKROM - 1. Karam (oliyjanoblik) qilish; 2. Izzat qilish
IKTIFO - kifoya qilmoq
ILAYI - oldi
ILGING - qo‘ling
ILHON - yoqimli ovozlar, xonishlar, sayrashlar
ILIK - qo‘l
ILM HAY’AT - astronomiya
ILMI HOL VA ILMI QOL - ilm turlari
ILTIZOM - zaruriyat, ehtiyot
ILG‘AMOQ - hujum bilan bormoq
IMMIGRANT - chet ellik muhojir
IMPORT - chet el mahsuloti
INAB - arablarda uzum
INAK - Buxoroda sigir
INBISOT - shodlik
INBISOT ANDUZ - shodlikka to‘la
INFIOL - hayajonlanish
INFLATSIYA - qog‘oz pullarning ko‘payib ketishi va qadrsizlanishi
INGEK - sigir
INJU - dur yoki marvarid munchoq

INKOR QILG‘IL - qayt

INMOQ - tushmoq

INNOVATSIYA - fan-texnika sohasidagi yangilik

INONMOQ - ishonmoq

INOYAT - lutf-u ehson, marhamat, shafqat

INSTINKT - odamning aqliga bog‘liq bo‘lmagan, uning tabiatida o‘z-o‘zidan mavjud bo‘ladigan sifatlar

INTIBOH - ogohlanish va oglantirish

INTIHO - oxir, so‘ng

INCHKA - ingichka

IQBOL - davlat, boylik; omad, yaxshi kelajak

IQLIM - mintaqa, qit’a (olimlar yer yuzini yetti iqlimga ajratganlar)

IQOMAT - yashash

IQTIDO - ergashish

IQTIZO - taqozo

IRDADIM - izladim

IRTIFO‘ - ko‘tarilish, yuksalish; balandlik

IRG‘AT - silkitmoq, qoqmoq

IRSHOD - to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish

ISMAT - poklik, ma’sumlik

ISMO‘ - eshittirish, eshitish

ISOR - bag‘ishlash; in’om qilish, ayamay taqdim qilish

ISQOT - olib tashlash, soqit qilish

ISRIGACH - mast bo‘lgach

ISROR - qat’iylik, o‘jarlik

ISTAQON - stakan

ISTID’O - iltimos, so‘rash, yalinib-yolvorish

ISTIFODAT - foydalanish, ilm olmoq

ISTILOH - atama, termin

ISTIMO‘ - eshibosh

ISTIG'FOR - Xudodan gunohni kechirishni so'rash, gunohlariga tavba qilish

ISTIG'NO - 1. E'tiborsizlik bilan qarash, ro'yxush bermaslik; 2. O'z qiymatini oshirish uchun o'zini beparvo qilib ko'rsatish, noz qilish

ISTOFIL - yunonlarda uzum

ITGAN - yo'qolgan

ITLANUR - yo'qolur

ITOBI - g'azab

ITOLG'U - ovchi qush

ITTIHOD - birlik

ITUZUM - mayda qora mevali yovvoyi o'simlik

IXFO - yashirin, maxfiy

IXROJ - surgun

IXTILOT - aralashish, qo'shilish, bordi-keldi qilish

IYD - bayram

IYDI QURBON - qurban hayiti

IYMANMAS - iymanmaydi, hazar qilmaydi

IYMO - imo, ishora

IZN - ruxsat, ijozat

IZORASI - uyning yer bilan tokcha orasidagi qismi

IZZAT - azizlik, qadr-qimmat

ISHBAY - bajargan ishiga qarab haq to'lash

ISHKOL - qiyinchilik, mushkullik

ISHQ PECHON - pechakgul

ISHRAT PAYMONALARI - xursandchilik qadahlari

ISHTIBOH - shak-shubha, gumon

ISHTI'OL ETMOQ - shu'lalanmoq, alangalamnoq

ISHVAGAR - ishva qiluvchi

J j

- JABIN** - manglay
- JAFO** - zulm, sitam
- JAFOGUSTAR** - jafo qiluvchi, jafokor
- JAFOJO‘** - jafo qiluvchi
- JAHD AYLAMAK** - urinmoq, astoydil kirishmoq
- JAHONAFRO‘Z** - jahonni kuydiruvchi, yorituvchi
- JAHONSO‘Z** - jahonni kuydiruvchi; quyosh
- JALDU** - mukofot
- JALODAT** - ulug‘lik, bahodirlik
- JAMRIY** - past tabaqa vakili
- JARAS** - qo‘ng‘iroq, karvon tuyasidagi qo‘ng‘iroq
- JARIMA** - gunoh
- JASTA** - sakragan, irg‘ib chiqqan
- JAVHAR** - 1. Asl, mohiyat. 2. Qimmatbaho tosh
- JAVLIK** - yoppasiga
- JAVOBI XARGO‘SH BERIB** - quyoning rasmini chizib
- JAVR** - jabr, azob
- JAVRILDI** - aylandi
- JAVSHON** -sovut
- JAYNADI** - yashnadi
- JAYXUN** - Amudaryoning qadimgi nomi
- JAZBA** - jalb etish
- JAZIRA** - orol
- JAZM** - aniq
- JAZOYIL** - nayza
- JASH** - feruza rangli tosh, osmon rangi
- JELAK** - ayollarning yenglari bir-biriga chatilgan yopinchig‘
- JIBA** - urush kiyimi,sovut

JILVAGOH - jilva (nur) joyi, yakirab ko‘rinish o‘rni;
ko‘rinish joyi

JINOHI TAYR - qanotli parranda

JISMI SO‘ZON - o‘rtanayotgan vujud

JIVOR - yon, atrof

JIZIQ - kuydirilgan quyruq, jizza

JOBIR - jabr qiluvchi

JOBIRU ROHZAN - Jobir yo‘lto‘sar

JODU - sehr

JOH - mansab, amal, martaba

JOH AHLI - mansab, amal egalari; ma’rifatsiz kishilar

JOHIN - mansab, martaba

JOLA – 1. Do‘l. 2. Shudring, shabnam. 3. Ko‘z yoshi

JOM - qadah, may piyolasi

JOMI JAM - afsonaviy podshoh Jamshid ixtiro qilgan jom,
ichidagi mayi

JOMI JAMOLI SOQIY - soqiy jamolining jomi, ya’ni piri
komil yoki ma’shuqa yuzini
ko‘rib, shavqidan mast bo‘lmoq

JOMIUL ULUM - barcha ilmlar egasi

JON QUSHI - ko‘ngil

JONIB - tomon

JONIBIG‘A - tomon, taraf, jihat

JONIBTIN - tarafdan

JONSO‘Z - jon o‘rtovchi, azob beruvchi

JOV I - ovoza, ta’rif

JOV II - yov

JOVIDONA - abadiy, doimiy, mangu

JOZIB - tortuvchi; jozibali

JOZIM - jazm qiluvchi

JOG‘A - joyga

JUD - in’om, ehson; qo‘li ochiqlik, saxiylik

JUMHUR - respublika, jamoa birlashmasi
JUNG - katta kema
JUNUN - aqldan ozganlik, savdoyilik
JUNUN DAFI - telbalikni daf etish
JUR'A - qultum
JUR'AT - botinish
JURI - maslahatchilar kengashi
JUSTUJO'Y - qidirish
JUU - ochlik; ishtaha
JUVARIPOYA - jo‘xorizor
JUVOZI KOG‘OZ - juvoz yordamida tayyorlangan qog‘oz
JUZ - bo‘lak, qism, fasl, daftar (qo‘lyozma kitoblarda)
JUZDON - papka
JO‘MLADI - jamladi
JO‘N - daryo nomi
JO‘NPUR - daryo nomi
JO‘Y - ariq, anhor, oqar suv
JO‘SH I - qaynash; g‘ulg‘ula, g‘avg‘o
JO‘SH II - yonmoq; chanqamoq

K k

KABIK - kaklik
KABUTAR - kaptar
KAF - kaft
KAFI POY - oyoq kafti, tagi
KAFOLAT - kafillik, ishonch xati
KAJ - teskari
KAJDUM - chayon
KAJNIHOD - yomon xulqli, yomon tabiatli
KAJRAFTOR - makkor, egri yo‘lga yuruvchi
KAJRAV - teskari yuruvchi

KALISO - xristianlar ibodatxonasi, cherkov

KALKULATSIYA - bajarilgan ishning o‘lchovini hisoblash

KALOM - so‘z

KALORIYA - lotincha issiqlik so‘zidan. Quvvat ma’nosida keladi

KALVAK - landavur, go‘l

KAMAND - arqon; tuzoq, sirtmoq

KAMERDINERLAR - uy xizmatchisi

KAMIN - pana joy, xilvat joy (pistirma)

KAMINGAH - pana, pistirma

KAMZAROFAT - yoqimli bo‘lmagan

KANORA - chet, chekka

KARAM - saxiylik, mehr-shafqat

KARIH - jirkanch

KARIMUTTARAFAYN - ikki taraflama ulug‘

KARK - karkidon

KAS - kishi, shaxs, kimsa

KASB RO‘ZI - har kungi ish, hunar; mashg‘ulot

KASIR - mo‘l-ko‘l; barcha

KASRAT - mo‘llik

KAVKAB - yulduz; ko‘z yoshi

KAVKABISTON - tiniq, yulduzlari charaqlab turgan osmon

KAVOKIB - yulduzlar

KAVSAR - jannat bulog‘i

KAYBUR - keng enlik kamon o‘qi

KASHFI ASRORI NIHON - yashirin sirni ochish

KASHMIR - Shimoliy Hindistondagi voha va shahar

KASHSHOF - kashf qiluvchi

KEJIB - kechib

KELBATLI - kelishgan, qomatli, bichimli

KENT - shahar

KERILDI - yoyildi, yozildi

KERINSKA POSHSHO - Rossiyada 1917 yilning fevralidan oktabr oyiga qadar hukm surgan muvaqqat (vaqtinchalik) hukumat boshlig‘i

KERISH - yoy ipi

KECHIN - kech

KECHKISIN - kechqurun, kechga tomon

KECHTI - o‘ldi

KIBR - o‘zini hammadan yuqori his etish, manmanlik

KILK - qamish qalam

KIMYO - yonish ilmi, misning olov ta’sirida oltinga aylanishi

KIN I - adovat, dushmanlik

KIN II - kuch

KINAKASH - kek saqlovchi, dushmanlik qiluvchi , o‘ch oluvchi

KINAVAR - kinchi, adovatkor, kekchi

KINPARDOZ - adovat qiluvchi

KINXOH - kek saqlovchi, qasoschi

KIRDOR - qilg‘iliq, ish

KIPT - kift, yelka

KIROMI - aziz

KIROMIY QADR - azizlik, hurmatga sazovorlik

KIROVKA - sovut ichidan kiyiladigan metall nimcha

KISVAT - kiyim, ust-bosh

KITOBA - devor, darvoza, eshik va qabrtoshlariga o‘yib yozish san’ati

KIYNA - adovat

KIYNAXOH - alamzadalik, o‘ch olish istagi

KIZ - kiygiz

KIZB - yolg‘on

KISH - olmaxon
KISHTIBON - kemachi
KISHVAR - mamlakat, o'lka
KOH - somon
KOJ - shapaloq
KOKIL - soch o'rimi
SANGIN - toshdan qurilgan
KOKULI QULLOB - gajak soch, kokil
KOLA - mato
KOLLEJ - o'rta maxsus o'quv yurti
KOM - tanglay; og'iz; maqsad, orzu
KOMGOR - baxtiyor, murodga yetgan
KOMILI - mukammal biluvchi ustod
KOMRON - o'z maqsadiga erishgan; hukmdor
KOMSORG - sho'rolar davridagi yoshlar tashkilotining
 kichik yetakchisi ko'zda tutilgan
KONSENUS - tortishuvchi masala bo'yicha kelishish
KONTOR - idora
KOR - ta'sir
KOR OZMO - ish ko'rgan, tajribali
KORRUPSIYA - shaxsiy boyish uchun bo'lgan xatti-
 harakat
KOTIB - ro'yxat tuzish, qo'lyozmalarni ko'chirish bilan
 shug'ullangan shaxs, mirza
KOV-KOV ETTI - kovladi, o'ydi
KOX - yuksak bino, qasr, saroy
KOZIB - yolg'onchi
KOSH - koshki, qani edi
KUDURAT - g'am
KUFFOR - kofirlar
KUHULAT - o'rta yasharlik
KULAH - bosh kiyim

KULBAYI XAMMOR - may do‘koni, may sotiladigan do‘kon (uy)

KULIKLAMOQ - jonivorlarning oyoqlarini chalmashtirib bog‘lash

KULLA - cho‘qqi, tog‘ cho‘qqisi

KULLI YAVMIN BATAR - kundan kun battar

KULLIYOT - biror narsaning yig‘indishi, to‘plam

KULOLA - jingalak soch

KUNASH - quyosh

KUND - o‘tmas

KUNDA PIX - to‘nkaday qo‘pol

KUNGUR - panjara, dandana

KUNJ I - burchak; sayyoralar qo‘nadigan manzil

KUNJ II - but

KURSKOM - kurs boshlig‘i ma’nosida

KURUH - to‘rt ming gazlik uzunlik o‘lchovi; 2 km chamasida

KUTVOL - qal’a boshlig‘i, komendant

KUSHOD - ochmoq

KUSHTGIR - kurashchi

KUSHTI - kurash

KO’DAZ - asra, avayla

KO‘HAK SUYI - hozirgi Zarafshon

KO‘HI DARD - dard tog‘i

KO‘HKAN - tog‘ qazuvchi, Farhodning laqabi

KO‘HSOR - tog‘li joylar

KO‘K I - ildiz, tomir; asos

KO‘K II - moviy, zangori; osmon

KO‘K TOQI - ko‘k gumbazi

KO‘LOK - to‘lqin; bo‘ron

KO‘MOCH - cho‘ponlarning kulga ko‘mib pishiriladigan noni

KO'NGIL OROMI - ko'ngil xohishi, huzuri, ishtiyoqi
KO'NI - to'g'ri, rost, haqqoniy
KO'KRAMAK - na'ra tortmoq
KO'RAGONIY - so'zma-so'z ma'nosi kuyov degani
KO'RDIMAN - men ko'rdim
KO'RKABOY - go'zal
KO'TAH - kalta, qisqa
KO'TAHLIK - qisqalik, ko'p o'rinda kamtarlik ma'nosida keladi
KO'CH - urug‘, zot
KO'CHAK-U BUZRUK - kichig-u katta
KO'SHISH - jahd qilish, intilish

L I

LAFZ - so'z
LAHIM - yerosti yo'li
LAHLI - idish, ko'pincha qadah ma'nosida keladi
LAHN - ovoz, ashula; sayrash
LAHV - o'yin-kulgu, befoyda ish
LAHZA - on
LAIM - past (gado)
LA'L - qip-qizil tosh; ba'zan istiora tarzida yorning labini anglatib keladi
LAVAND - dangasa, yalqov
LAVH - yoyiq narsa, taxta; yozuv taxtasi
LAVOYI - joy nomi
LAXTE - parcha
LAXTI XORA - qattiq tosh bo'lagi
LIQO- yuz, chehra
LISON - til

LITSENZIYA - chetga mol chiqarish yoki keltirish uchun
ruxsatnama

LIVO - bayroq

LIVOYI ISHTIHOR - shuhrat bayrog‘i

LO - yo‘q

LOBA - 1. Yolvorish, so‘rash; tilyog‘lamachilik; 2. Firib

LOJARAM - noiloj

LO‘K - yuk tashiydigan tuya

LOLABOR - lola yog‘diruvchi, qizartiruvchi

LOLAKOR - lola ekuvchi; qon yosh sochuvchi

LOLAVOR - loladay qizil

LOMAKON - makonsiz; ma’naviy olam

LOG‘AR - oriq

LUG‘ATNAVISLIK - lug‘at tuzish ishi

LU’LU - marvarid, gavhar; majozan jilvalanuvchi oppoq tish

LUTF - muloyimlik, rahmdillik, yaxshi muomala, marhamat

LUT - LOYAMUT - yetarli ovqat

M m

MABHUT - hayratlangan

MA’DAN - kon

MADDOH - madh etuvchi, olqishlovchi

MADFAN - go‘r, qabr

MADFUN - ko‘milgan, dafn qilingan

MADHUSH - behush

MADORIS - madrasalar

MADRUS - bekitish, yopish

MA’DUM - mavjud emas, yo‘q, yo‘q bo‘lgan

MAFAR - panoh, boshpana

MAFHUM - 1. Tushuncha; 2. Ma’no, mazmun

MAFOSIL - bo‘g‘in - bod (revmatizm) kasalligi

MAFQUUDUL-ASAR - asari, izi yo‘qolgan
MAFQUF BO‘LMAYIN - to‘xtatmayin
MAGAS - chivin, pashsha
MAGISTRATURA - bakalavrdan so‘ng chuqurlashtirilgan
 oliy ma’lumot berish tizimi
MAGOQ - o‘rnak, namuna; mash’al
MAHBUB - sevimli kishi, yor
MAHD - beshik
MAHFIL - joy, manzil; to‘planish
MAHI TOBON - porlab turgan oy
MAHJABIN - oy peshona, peshonasi chiroyli, go‘zal
MAHJUR - hajrda qolgan, ayriliqda qolgan
MAHKAMA - hukm qiluvchi, hukm chiqaruvchi idora, sud
MAHKAMAYI SHAR’ - shariat mahkamasi, ya’ni
 qozixonada
MAHKUMI - bir hokimning hukmi ostidagi (kishi)lari
MAHL - muhlat, fursat
MAHLULDEK - eritilgan
MAHMIL - 1. Tuya va boshqa ulov ustiga o‘rnatilgan, odam
 o‘tiradigan; 2. Kajavadagi yuk
MAHMIZ - etikning orqa tomoniga o‘rnatilgan temir halqa
MAHMUD ABDUL BOQIY (1526-1600) - usmonli shoir,
 «Sumbul qasidas» muallifi
MAHOFIL - majlislar, yig‘inlar
MAHPAYKAR - oy suratli, oyday go‘zal
MAHRAM - yaqin do‘st; sirdosh, ishonchli kishi
MAHRO‘ - oy yuzli (go‘zal)
MAHTOB - oydin
MA’HUD - 1. Mashhur; 2. Odatdagi; qadimgi
MAHV - yo‘qolish, bitish
MAHVASH - jamoli oyga o‘xshash, oydek go‘zal, oyjamol
MAHVASHQA - oyday go‘zal

MAHZ - xolis; yolg‘iz

MAHZI HAQIQAT - faqat to‘g‘ri gap

MAHZUN - g‘amgin

MAJLIS OROY - bazm bezovchi

MAJNUNI GUMRAH - yo‘lini yo‘qotgan jinni

MAJRUH - jarohatli

MAJUN - turli giyohlardan tayyorlanadigan ichimlik

MAJZUB - aqldan ozgan, devona, jinni

MAKNUN - yashirilgan, maxfiy

MAKR - hiyla, firib

MALAK - farishta

MALAKUT - podshohlik

MALLOH - kemachi

MALO - to‘la, to‘lalik; jamoat, xalq, el

MALOHAT GANJI - go‘zallik xazinasi

MALOMAT - ta’na, dashnom

MALOYIK XO‘YLUQ - farishta axloqli

MA’LUF - ulfat

MAL’UN - la’nati, la’natlangan

MA’MAN - joy

MAMAR - o‘tish joyi, yo‘l

MAMDUH - maqtalgan

MAMLU - to‘lgan, to‘la

MAMOLIK - mamlakatlar, yurtlar

MA’MURA - mamlakat, obod shahar, obodonchilik

MAN - kim, kimiki

MANGU - abadiy, boqiy

MANI I - meni

MANI II - mustahkam qal’a

MANJANAQ - palaxmon (devor buzish uchun tosh otadigan qurilma)

MANKUB - baxtsiz, azobda qolgan, qiyinchiliklarga yo‘liqqan, xarob

MANOFI' - manfaatlar, foydalar

MANOL - mulk, xazina, uy-joy

MANOQIB - sifatlar, fazilatlar, go‘zal xislatlar

MANOZIL - manzillar, maskan

MANQUL - naql etilgan, aytilgan, birovdan ko‘chirilgan

MANQUSH - naqshlangan, bezalgan

MANSUBA - tadbir, chora

MA’NUS - odatlangan

MANZURI - ko‘zlagani, ma’qul topgani

MANSHUR - yoyilgan, tarqatilgan; yorliq, farmon

MAONI - ma’nolar, mazmunlar, siyratlar

MAQOBIR - qabrlar

MAQOLAT - So‘z, nutq

MAQOM I - 1. Rutba, daraja; 2. Turar joy

MAQOM II - to‘xtash

MAQOSID - maqsadlar, niyatlar, muddaolar

MAQRUN - yaqin; yondashgan

MAQSUD - qasd qilingan, niyat qilingan narsa; maqsad, istak, murod, orzu

MARAZ - kasallik

MARBUT - aloqali, bog‘li, taalluqli

MARDUD - rad etilgan, haydalgan, quvilgan

MARDUM I - ko‘z qorachig‘i

MARDUM II - odam, inson

MARDUMI SAHROYI - qishloq odami

MARG - o‘lim

MA’RIY - rioya, amal

MARKAB - ulov

MARKETING - mahsulotni sotish choralari majmuyi

MARKUZ - mustahkam

MAROHIL - manzillar, masofalar
MAROM - biror ish yoki faoliyatning me'yori
MARQAD - qabr, go'r
MA'RUF - ma'lum, mashhur
MARG'UB - sevimli, yoqimli, ma'qul
MARG'ZOR - o'tloq
MASDAR - 1. Manba, sodir bo'lish; 2. Grammatikaga oid atama, harakat nomi
MASIH - silab tiriltiruvchi; Iso payg'ambarning laqabi
MA'SIYAT - gunoh
MASJIDI MUQATTA' - parcha-parcha machit
MASKUN - kishilar yashab turgan joy, turarjoy
MASLUB - ajratib tashlangan
MASNAD I - 1. Suyanchiq; 2. Taxt, hukmdorlik o'rni
MASNAD II - martaba
MASOF - jang, janggoh
MASOKIN - miskinlar (ezilganlar)
MASOYIB - musibatlar
MASRUR - xursand
MASTI LO YAQIL - hushsiz mastlar
MAS'UD - saodatli, baxtli
MASXARABOZ KAL - qiyofasini o'zgartira oladigan Jaynoq ko'zda tutiladi
MATBAX - ovqat pishiradigan joy, oshxona
MATLA UI-ANVOR - Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sining birinchi dostoni
MATOF - tavof (aylanib, ziyorat) etiladigan yer
MAV'ID - va'da
MAVLUD - tug'ilgan
MA'VO - makon
MAVOJIB - belgilangan (haq, maosh)
MAVOZI - mavzelar, joylar

MAVQUF - 1.To‘xtash; 2.Tegishli

MAVR - arab

MAVSUM - ismlangan, nomlangan

MAVZUN - vaznli

MAXDUMI A’ZAM - mashhur avliyo Abdulqodir G‘iloniyning unvoni

MAXINATSIYA - ko‘zbo‘yamachilik, firibgarlik

MAXLAS - xalos, qutulish

MAXLUT - xalaqit, aralash

MAXMUR - mast, sarxush

MAXUF - qo‘rqinchli, vahimali

MAXZAN - xazina

MAXZAN UI-ASROR - Nizomiy «Xamsa»sining birinchi dostoni

MAY - sharob

MAYGUN - may rangli, qizil rangli

MAYI NOB - tiniq may

MAYKADA - mayxona

MAYL - xohish

MAYXORA - mayxo‘r

MAZALLAT - xorlik

MAZALLAT CHOHI - xo‘rlik (tubanlik) chuquri (qudug‘i)

MAZAMMAT - uyaltirish, kulgi qilish

MAZHAR - ko‘rinish

MAZKUR EDI - gapirilar edi

MAZMUM - yomon, nafratli

MAZORI SHOH - hozirgi Shohi Zinda

MAZRA’ - ekinzor

MAZRU’ - ziroat, ya’ni ekin

MAZRUF - idish ichidagi narsa

MAG‘RIB - G‘arb

MASHHUR - shuhratli

MASHOM - burun, dimog‘

MASHOQLAR - yig‘ib oladilar, xirmon qiladilar

MASHRIQ - Sharq

MASH’UF - 1.Aqlsiz, devona; 2.Berilish; maftun, shod

MASHVARAT - kengash, maslahat

MASHSHOQ - sozanda

MEDITATIV NAZM - hissiyot jilvalari aks etgan she’riyat

MEHNAT - azob, mashaqqat

MEHR I - muhabbat

MEHR II - oftob, quyosh

MEHRI ANVAR - eng porloq nur

MEHRI MUNIR - yorituvchi quyosh

MEHRI OLAMOROV - olamni yorituvchi quyosh

MEHRI XOVAR - Sharq quyoshi

MEHROMIZ - quyoshdek

ME’MORI SAN’AT - go‘zal binolar qurish san’ati

MENEJER- yuqori malakali yollangan boshqaruvchi

MENG - xol

MIDOD - siyoh

MIHAN - mehnatlar

MIJMAR - cho‘g‘don

MIJOZ - xulq, tabiat

MILOD - tug‘ilish, tug‘ilgan kun

MILOYAMAT - muloyimlik, uyg‘unlik, muvofiqlik

MIOD - vaqt, payt

MIRISHKOR - o‘z ishining ustasi

MIR’OT - 1. Oyna, ko‘zgu; 2. Soflik, tozalik; 3. Ko‘ngil

MIRG‘AZAB - mahbus va bandilarni jazolaydigan

MISKIN - 1. Kambag‘al, bechorahol; 2. Mungli, hazin

MISMOR - mix, qoziq

MISQOL - qadimiyl og‘irlilik o‘lchov birligi, 4,5 gramm atrofida bo‘ladi

MISTAR - chizg‘ich, lineyka

MITRA - quyosh xudosining ismi, kuch-qudrat ramzidir (“Avesto”da)

MIZ - taxta, stol

MIZBON - bu so‘z asli forsiy “miz” - stol, xontaxta so‘zi va shaxsni ifodalovchi “-bon” qo‘sishimchasiidan yasalgan bo‘lib, u mehmon uchun tuzatilgan dasturxon sohibini anglatadi

MIG‘FAR - jangda kiyiladigan bosh kiyimi, dubulg‘a

MO - suv

MOADO - ...dan boshqa

MOBAYN - o‘rta, oraliq

MODAR - ona

MOH - oy

MOHI DILXOH - ko‘ngil istagan oy; ma’shuqa

MOHI RAJAB - rajab oyи

MOHI TOBON - porlab turgan oy

MOHIR - usta, tajribali

MOHI SHAST - baliq qarmog‘i; **mohi** - baliq;
shast - qarmoq

MOHONA - oylik

MOHTOB - oy yoritib turgan, oydin

MOLIK - hukmdor, shoh

MOLOMOL - to‘la, limmo-lim

MOLOYA’NI - qiymatsiz narsa

MONE’ - to‘siq, qarshilik

MORPECH XIYORA - tosh ustunga o‘ralgan ilon tasviri

MOSIVO - hech vaqosiz, yo‘qsil

MOUMANLIK - 1. Manmanik; 2. Muqarrar, gumonsiz

MOYAYI PAYVAND - farzand

MUAASSIR - ta’sirlangan

MUABBAD - abadiy

MUAKKAL - vakil etilgan, biror ish topshirilgan kishi

MUALLIF- avtor, ixtiro yoki kitob egasi

MUANBAR - xushbo‘y, anbarli

MUANNAS - xotin jinsi

MUARRO - 1. Yalong‘och, bo‘sh, xoli; 2. Pok, ozod

MUATTAL - bekor, behuda, chetga chiqarilgan

MUBADDAL - almashingan, o‘zgartirilgan

MUBHAM - noaniq

MUBKIY - yig‘latuvchi

MUDAVVAR - aylana, yumaloq

MUDBIR - baxtsiz

MUDDAIY - da’vogar, da’vo qiluvchi, raqib

MUDOVAMAT - davom ettirish, uzliksiz ishslash

MUFARRIH - shodlik, xursandchilik keltiruvchi

MUFASSAR - tafsir, sharh

MUFID - foydali

MUFLIS - qashshoq

MUFTAXIR - faxrlanuvchi, quvonuvchi

MUHAQQAQ - to‘g‘rilik

MUHARRAM - 1. Qamariy yil hisobida birinchi oyning
arabcha nomi; 2. Ma’n qilingan, ruxsat
etilmagan

MUHIB - sevuvchi, do‘st tutuvchi

MUHLIK - halok qiluvchi

MUHOFAZA - 1. Saqlash, qo‘riqlash, himoya qilish;
2. Esda saqlash qobiliyati, xotira

MUHRDOR - davlat hujjatlarini rasmiylashtiruvchi amaldor

MUHSIN - ezgu niyatli, ezgu ishlar qiluvchi

MUHTASHAM - boy, hashamatli

MUJDA - xabar, darak

MUJDAI IQBOL - xursandchilik xabari

MUJGON - kiprik, kipriklar

MUJIB - bir ish va holning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi, sababchi

MUJOVIR - makkada yoki biror mozorda turg‘un bo‘luvchi

MUKARRAM - hurmatli, obro‘li

MUKARRAMA (MUKARRAM) - karamli, karam egasi; buyuklik, himmat egasi

MUKARRAR - takror

MULAM - rangli, nishonalik

MULAMMA - rang-barang; bezalgan, naqshinkor

MULAVVAN - ranglangan, rangli, rang-barang

MULK - mamlakat

MULOTAFAT - iltifot

MULTAMAS - iltimos, so‘rov, so‘ralgan

MUNAQQASH - naqsh bilan bezatilgan, naqshdor

MUNFAIL - xijolat

MUNGLASHMOQ - mungli ovoz chiqarmoq, mungli yig‘lamoq, dardlashmoq

MUNIS - do‘st, ulfat, hamdam

MUNKIR - inkor etuvchi

MUNOJOT - yalinish, yolvorish

MUNQASIM - qismlarga ajratuvchi, bo‘luvchi, taqsimlovchi

MUNQATI’ - ajratilgan, kesilgan, uzilgan

MUNQOD - bo‘yin eguvchi, bo‘ysunuvchi, itoat etuvchi

MUNTAHI - oxiriga yetuvchi

MUNTAQIL - o‘tuvchi, ko‘chuvchi

MUNTAXAB - tanlangan, saralangan

MUNTASHIR - yoyilgan, tarqalgan

MUNZAL - indirilgan, yuqoridan tushirilgan

MUNZAVIY - chetlashish, ibodat qilish

MUNSHIY - kotib

MUOMALOT - muomalalar, bordi-keldilar
MUQADDAR - taqdirdagi; qismat
MUQARRAB - yaqin, do'st
MUQATTAOT - qit'alar
MUQAVVIY - madadkor
MUQAYYAD - bog'langan, bandga solingan, qul , asir
MUQBIL - baxtli
MUQIM - turib qolish
MUQIMLIK - bir joyda turuvchilik, yashovchilik
MUQIR - iqror
MUQOBALA - qarshi kelish
MURABBIY - tarbiyachi
MURAQQA - yamalgan, quralgan (to'n haqida)
MURATTAVVIG' - tartibga solinganlik
MURAVVAQ - tiniq, to'la
MUROFAA - hukmronlik da'vo qilish
MUROQABA- mushohada qilish
MURSAK - yengsiz paxtalik kamzul
MURT - mo'ylov
MURT GARDONI - hisob-kitobi, javobi
MURUR - o'tish, yurish, kechish
MURG' - qush, parranda
MURSHID - to'g'ri yo'lga soluvchi, yo'l ko'rsatuvchi;
so'fiylikda - pir, eshon
MUSAID - yordam beruvchi, qulay
MUSALLAM - ko'nish, tan berish, taslim bo'lish
MUSALSAL - zanjirga o'xshash
MUSATTAH - tekis ma'nosida
MUSAVVAR - mujassam, tasvir etilgan
MUSAXXAR - zabt etilgan, bo'ysundirilgan
MUSAYQAL - sayqallangan

MUSO - yahudiy payg‘ambarlardan biri, xudo bilan so‘zlashgani uchun uni «**kalimulloh**» ham deb ataydilar

MUSOFAR - safarga chiqqan, sayohatchi

MUSOHIB - yaqin kishi

MUSTAFID - bahramand, foyda oluvchi

MUSTAHIQ - munosib, loyiq; duchor

MUSTA’JIL - shoshuvchi

MUSTAJOBI DA’VA - duosi qabul bo‘ladigan

MUSTA’MALDUR - amaldadir

MUSTAMI’ BO‘LMOQ - qulq solmoq, eshitmoq

MUSTAVLI I - zabit etuvchi

MUSTAVLI II - yoyilgan

MUSTAG‘ROQ - g‘arq bo‘lgan, cho‘mgan

MUTAASSIR - ta’sirlanmoq, ko‘ngliga oluvchan

MUTAHARRIK - harakatlanuvchi, qimirlab turadigan

MU’TAKIF - ibodat uchun xilvatga kirib olgan

MUTAVAJJIH BO‘LMOQ - yuzlanmoq, yo‘l olmoq

MUTAVVAL - uzun

MUTAZARIR - zararlangan, zarar ko‘rgan

MUTE - itoat etuvchi

MU’TOD - o‘zgargan

MUTRIB - cholg‘uchi, qo‘sinqchi

MUTTAKO - suyanchiq, suyanadigan narsa

MUVAAHHISH - mudhish

MUVAJJAH - ma’qul, yoqimli, yaxshi

MUVOSO - yaxshilik; murosa qilish

MUXBIRI SODIQ - sodiq xabarchi

MUXTALIF - turli-tuman

MUXTALIFMAZHAB - xilma-xil aqidaga mansub

MUXTASAR - ixcham, kichik

MUZAFFAR - g‘olib

MUZAHHAB - zarhal qilingan
MUZAYYAN - bezangan
MUZDI - ish haqi; to‘lov
MU’ZIN - muazzin, azon aytuvchi
MUZMAR - pinhon, yashirin
MUZTARIB - iztirobli, beqaror
MUG‘ I - otashparast; mayfurush
MUG‘ II - mazda dinining ruhoniysi, peshvosi
MUG‘BACHA - may tashuvchi bola; ma’shuqa
MUG‘LAQ - tushunib bo‘lmaydigan
MUG‘TANAM - o‘lja; g‘animat
MUSHARRAF - sharafli, sharaflash
MUSHAVVASH - tashvishli, besaramjon, ko‘ngli parishon
MUSHAXXIS - ijrochi, aktyor
MUSHFIQ - shafqatli, mehribon
MUSHKBEZ - yoqimli mushk hidini sochuvchi
MUSHKIN - mushk hidli; mushk rangli; qora soch
MUSHKIN TANOB - mushkli (isli) arqon
MUSHTARIY - oluvchi, xaridor
MUSHTI XOKAM - bir siqim tuproqman
MO‘BAD - otashparastlar boshlig‘i, obid
MO‘JIB - sabab
MO‘JIZA - yangilik, hayratli ish, voqeа
MO‘R - chumoli
MO‘RCHA - Samarqand va Buxoroda chumoli
MO‘TOD - odат
MO‘Y - tuk, soch tolasi
MO‘YA - yig‘i

N n

NABARD - urush, jang
NABOTOT - o‘simliklar

NADIM - xizmatkor
NAFIR - nola, faryod
NAFRIN - nafrat, la'nat, haqorat
NAFT - qora moy, neft
NAFY - inkor etish
NAHANG - ulkan yirtqich baliq, akula
NAHIB - qo‘rqinch
NAHR - ariq
NAHRI AZIM - katta daryo
NAHV - sintaksis
NAJJOR - duradgor, imorat yasovchi usta
NAKXAT - xushbo‘y hid
NA’L I - tobut
NA’L II - poyabzal ostiga qoqladigan temir taqa
NAMGIN - namli, yoshli
NAMUDOR - ko‘rinadigan, ko‘rinib turgan
NANG-U NOM - or-nomus
NARGIS - oq rangli gul, ko‘zga o‘xshashligi uchun ko‘proq
ko‘z nazarda tutiladi
NARMODA - erkak-ayolligi aralash, xunasa
NARXAR - hangi, erkak eshak
NARYA SANHA - mifologik qahramon nomi, Mitraning
yordamchisi
NAS - farmon; “nun” bilan “sod” harflari qosh bilan ko‘zga
ishora qiladi
NASAB - nasl, urug‘
NASAQ - tartib, intizom, qoida
NASIM - shabada, mayin (yoqimli) shamol
NASTARON - gul turi
NATIB - ko‘rinish, paydo bo‘lish
NAV - yangi
NAVARD - yuruvchi, kezuvchi

NAVBAR - yangi yetilgan meva, yangi o'sayotgan o'simlik
NAVDARAXT - novdaday, yosh daraxtday tik qomatli
NAVHA - tovush chiqarib yig'lash, mungli yig'i, nola
NAVJAVON - yosh bola, yigitcha
NAVJUVON - yosh
NAVOHIY - atrof, tevarak, chegara
NAVOLA - in'om, ehson; taom, luqma
NAVOZISH - yaxshilik qilish, siylash, marhamat, mehribonchilik, erkalash
NAVQASLANMOQ - kasallanmoq
NAVXAT - miyig'ida kulgan
NAVXOSTA - go'zal qomatli, yosh yigit
NAXL - daraxt, ko'chat
NAXVAT - kibr-u g'urur; xudbinlik
NAYISTON - qamishzor
NAZIRI - tengi
NAZM - she'r
NAZOHAT - tozalik, soflik
NAZZORA - qarash, nazar tashlash, ko'z solish; tomosha
NAG'MA - kuy
NA'SH - tobut
NEKXOH - niyati yaxshi, ezgulik istovchi
NENG - narsa, mol, mulk
NE TONG - ajab emas, taajjublanarli emas, qiziq emas
NETTO - mahsulotninig og'irligi, asl bahosi
NEV - pahlavon, botir
NIFOQ - nizo, ikkiyuzlamachilik, kelishmovchilik
NIGAHBONI - qarovchi, qo'riqlovchi
NIGIN - uzuk
NIGOHDOR - nazorat qiluvchi
NIGUN - egilgan, bukilgan
NIHOD - tuzilish; vujud

NIHON - yashirin, pinhon
NILUFARVOR - nilufardek
NISBATI - munosabati, aloqasi
NISOR - sochish; chochqi
NIYOZ - yolvorish, o‘tinish, umid
NIZOR - bo‘sh, nozik, oriq, ozg‘in
NISH - zaharli jonivorlarning chaqish a’zosi
NISHAST QILIB - qaror topib, maqom tutib
NISHEB - pastlik
NISHOT - shodlik
NISHOTABZOY - xursandlik paydo qiluvchi
NISHOTAFZO - xursandlik, xush kayfiyat, rohat paydo qiluvchi
NOB - toza, tiniq, sof
NOBIY (Yusuf Nobiy) (1640-1712) - usmonli shoirlardan
NODIRA - noyob, qimmatli
NOF - foydali, naqli
NOFA - mushk
NOFARJOM - oxiri yaxshi tugamagan, natijasiz
NOGOH - birdan, to‘satdan
NOHAMVOR - notejisiz
NOKOM - istagiga yetolmagan; nochor, baxtsiz
NOMAVZUN - kelishmagan
NOMULOYIM - yoqimsiz
NOPADID - ko‘rinmas, maxfiy; tayinsiz
NOR I - erkak tuya
NOR II - olov; badandagi qizg‘ish dog‘
NORI FIROQ - ayriliq azobi
NORI SAQAR - do‘zax olovi
NOSUFTA - aybsiz, nuqsonsiz; butun
NOSUR - bitmaydigan yara

NOTAVON - kuchsiz, bo‘sh; zaif, epsiz, shudsiz; toqatsiz, kasal, betob

NOTIQA - nutq so‘zlovchi

NOVAK - o‘q. Yorning qarashiga ishora. Uning har bir kiprigi qiyos etiladi

NOVAKANDOZ - o‘q otuvchi, mergan

NOVAKI MUJGON - kiprik o‘qi

NOZILI - ayon bo‘lish; bajo qilmoq

NOZIR - nazorat qiluvchi, qarovchi, ko‘z soluvchi

NOCHIZ - arzimas

NUFUR - nafrat

NUHUFTA - yashirin

NUKAT - “nukta”ning ko‘pligi, nozik va hikmatli so‘zlar

NUKTA - chuqur (nozik) ma’noli so‘z

NUKTA QILMA - ta’riflama, gapirma

NUKTASANJ - ma’nolarni nozik biluvchi

NUKTASARO - go‘zal va ma’noli so‘zlovchi

NUKTAYI DAQIQ - nozik so‘z. Chiroyli so‘z, ma’noli so‘z

NUMIZMAT - qadimgi tangalarni tekshiruvchi mutaxassis

NUQL - gazak (zakuska)

NUQUD - naqd

NUQUDI - kuchi, yordami

NUR - ilohiy yorug‘lik, haqiqat nuri

NURATO - hozirgi Nurotada o‘tgan avliyo

NUSRAT - zafar, g‘alaba

NO‘SH I - ichmoq

NO‘SH II - totli, chuchuk

NO‘SHI LAB - lab shirinligi

NO‘SHO-NO‘SH - sipqoruvchi, ichuvchi

O o

OB - suv

OBI AZOB - azob suvi. Nuh davridagi to‘fon ko‘zda tutiladi

OBI BAQO - hayot suvi, adabiy tiriklik suvi

OBI KAVSAR - kavsar hovuzining suvi

OBILA - po‘rsildoq, qavariq

OBIR - yeluvchi, yengil o‘tuvchi

ODAMPUR - joy nomi

ODOSH - tamom

OFIS - idora, korxona, firma egallagan joy

OFIYAT - sog‘lik, salomatlik

OFOQ - ufqlar, dunyo, yer yuzi

OHANG - qasd, qiliq, niyat

OHI SARD - sovuq oh, sovuq nafas

OJ - 1. Fil tishi; 2. Oq, ravshan, yorug‘

OKULYAR - durbinning ko‘z tomondagi linzasi

OL - qizil

OLACHIQ - chayla, kapa

OLAMFURUZ - olamni porlatuvchi

OLAMOROV - olamni bezatadigan

OLAT - asbob

OLIMI BOAMAL - ilmiga amal qiladigan olim

OM - omma, xalq

OMI (OMIY) - savodsiz, avom

OMODA - tayyor

OMOJ - maqsad

OMUZ - o‘rganuvchi, biluvchi

OQCHA - pul

OQITTI - oqizdi

ORASTA - tartibli

ORAZ - yuz, chehra

ORIF - ma'rifat sohibi, Olloohni tanigan kishi, komil inson

ORIZ - paydo bo'lgan, voqe bo'lgan

ORIZA - kasallik

OS - juni oq va yumshoq bir hayvon va uning terisidan
ishlangan po'stin

OSAF - Sulaymon payg'ambarning dono vaziri

OSIB - ziyon

OSIY - 1. Bo'ysunmaydigan, itoat qilmaydigan;
2. Gunohkor

OSIYB - zarar, ziyon, ofat

OSIYO SANG - tegirmon toshi

OSIG' - foyda

OSMONPAYMOY - osmon baravar, balandga intiladigan

OSOR - belgilar, asarlar

OSUDA - tinch, xotirjam

OTAR - bir cho'pon-cho'liq tomonidan boqilishi, bir
qo'raga qamalishi mumkin bo'lgan miqdordagi
qo'ylar to'dasi

OTASHDAM - otash nafasidan o't tutashuvchi

OTASHGOH - o'choq, tandir, o'txona

OTASHI NAMRUD - fir'avn Namrud Ibrohim payg'ambarni kuydirish uchun yoqqan ulkan
o't

OTASHI SO'ZON - yonib turgan, yolqinli olov

OTASHOLUD - yoniq, dardli, otashin

OTASH PORA - olov parchasi

OTQU - pokiza

OVLOQ - ov qilinadigan joy

OVOQ - avaxta, maxsus qamoq

OVUCH - hovuch, kaft, changal

OXIR UL-AMR - nihoyat, oqibatda

OYILMOQ - ayrilmoq

OYIN - rasm, odat, qiliq, ravish; tarz, tartib, usul; marosim
OYO - so‘roq va taajjubni anglatuvchi ko‘makchi so‘z: yoki,
balki, ehtimol kabi ma’nolarda qo‘llanadi
OYOQ ILDI - to‘xtadi
OY QURSI - to‘lin oy
OZIM ETSAM - yuborsam
OZMOYISH - sinash, imtihon
OZURDA - ozor chekkan, ranjigan
OG‘LAB - yig‘lab
OG‘OCHLAR - daraxtlar, (mevali daraxtlar)
OG‘OZ - boshlanish, kirishish, ibtido
OG‘U - zahar
OSHALOL - podachilarning ish haqi o‘rniga oladigan
yeguliklari, oshhalol
OSHIYON - in, uya
OSHЛИG‘I VOFIR - g‘allasi ko‘p
OSHUB - g‘avg‘o, to‘polon
OSHUFTA - tarqoq; maftun, shaydo
OSHUFTAHOL - parishonhol
OSHYON - qavat
OSHYONLIQ - qavatlik

P p

PADIDOR - paydo bo‘lgan, ko‘ringan
PAHR - kunning to‘rtdan biri
PAJMURDA - ezilgan
PALANG - yo‘lbars
PAND- nasihat, undash
PANJ GANJ - besh xazina. Nizomiyning «Xamsa»si ko‘zda
tutiladi
PANOH - himoya, muhofaza

- PARAND** - ipakdan to‘qilgan yupqa kiyimlik
- PARASTOR** - 1. Topinuvchi; 2. Xizmatkor; 3. Sevuvchi
- PARDADOR** - soqchi
- PARDASI** - nomusi
- PAREMIOGRAFIYA** - barqaror birikmalar lug‘atini tuzish muammolarini o‘rganuvchi bo‘lim
- PAREMIOLOGIYA** - barqaror birikmalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi
- PARGOLA** - parcha-parcha, bo‘lak; titilgan, yumdalangan
- PARGOR I** - pargar, sirkul
- PARGOR II** - yetti qat osmon
- PARISHON** - tarqoq, sochilgan, yoyilgan; yakson etilgan, umidsizlantirilgan
- PARRON** - uchuvchi
- PARTAV** - yog‘du, nur, shu’la
- PARTAV FIKAN** - nur, shu’la taratuvchi
- PARTOB** - uloqtirmoq, tashlamoq
- PARXOSH** - jang
- PARCHAM** - o‘rilgan soch, zulf, kokil
- PATENT** - xususiy shaxsga berilgan hujjat
- PAYCHI** - aksioner
- PAYDAR-PAY** - birin-ketin, ketma-ket, uzluksiz
- PAYK** - xabarchi
- PAYKAR** - haykal, jussa
- PAYKON** - kamon o‘qining uchi, o‘q uchidagi metall boshoq, tikon; kiprik
- PAYMON** - ahd, va’da
- PAYMONA** - may piyolasi, qadah
- PAYOM** - xabar, darak
- PAYRAV** - ergashuvchi
- PAYVAST (PAYVASTA)** - bog‘langan, ulangan, tutashgan
- PAYG‘OM** - xabar, darak

PASHKOL - yomg‘ir fasli
PASHMINA - jun matosidan qilingan kiyim
PEROYA - ziynat, bezak
PECH - o‘ram, to‘lg‘am; qing‘ir-qiyshiq
PECH AYLAMOQ - to‘lg‘anmoq
PECH-U TOB - to‘lg‘anish, iztirob
PECH-U XAM - o‘ralgan, buralgan, chuvalgan (zulfga tegishli)
PESHA - hunar, kasb, odat
PESH-U PAS - old-orqa. Tevarak-atrof ma’nosida
PILLA - palla, vaqt
PIRI MUG‘ON - mayxonachi
PIROHAN - ko‘ylak
PIR-U JUVON - keksa-yu yosh
PIYOLA HARIFLARI - qadah, ulfatchilik do‘stlari
POBASTA - oyog‘i bog‘li, tutqun
POLIGLOT - bir nechta tilda so‘zlashuvchi
PONSOT - askarboshi, qo‘rboshi
POPISA - po‘pisa, yolg‘ondan qo‘rqtish
PORSIY - forsiy
PORSO - taqvodor kishi
POS - hurmatini qilmoq, sadoqat
POY - oyoq
POYA - oyoq; joy, martaba
POYBASTA - giriftor
POYBO‘SI - so‘zma-so‘z: oyoqdan bo‘sса олиш, majozan: xushomad, ta’zim ma’nolarida ishlataladi
POYDOR - barqaror, doimiy
POYU - oyoq
POSHIKASTA - ojiz, notavon
POSHINA - qichamoq, niqtamoq
PREZENTATSIYA - biror narsani ko‘rsatish, taqdim etish

PRISTAN - kemalar to‘xtash joyi
PRIVATIZATSIYA - mol-mulkni xususiy lashtirish
PUDRAT - biror ishni haq hisobiga batamom tugallash majburiyati
PURDIL - o‘ziga ishongan, ko‘ngli to‘q
PURHOSIL - serhosil
PURKARDA - tajribali, ko‘pni ko‘rgan
PURKOR - tajribali, ko‘pni ko‘rgan, ishchan
PURMARDUM - odami ko‘p
PURNAM - ko‘zлari yoshga to‘liq
PUROB - lim-lim tola yosh
PURTOB - yarqiroq
PURXAM - notekis
PURZAR - pulga to‘la
PURSHAR - serjanjal, serg‘avg‘o
PUSHTA - tepalik, kichik tog‘cha, ya’ni Ko‘hak hozirgi Cho‘ponota tog‘i
PO‘PAKLI - popukli
PO‘YA - tez yurish; yugurish

Q q

QABAB - qamab
QABIH - jirkanch, yaramas
QABO - ko‘ylak ustidan kiyiladigan yengil ust kiyimi
QABOYIL - qabilalar
QABZA - changal, dasta, tutam
QABZAI HUKMI - qo‘l ostidagi, tasarrufidagi
QADOQ - qadimiy o‘lchov birligi: 1 qadoq 400 g atrofida bo‘lgan
QAHKASHON - galaktika, falak
QALAMZAN - kotib

QALANDAR - bu dunyoning barcha huzur-halovati-yu aysh-ishratidan, orzu-havasidan voz kechib, haqni izlab, kezib yunivchi so‘fiy siyrat darveshlar

QALI - agar, basharti

QALLOBLIK - firibgarlik

QALLOSSH - hech narsasi yo‘q, daydi

QALPOQ - do‘ppi

QAMAR - 1. Qamashtiradi; 2. Oy

QAMUQ - hamma

QARI - qarich

QARIB - yaqin

QARILAB - ulg‘aytirib, yoshiga yosh qo‘shib

QARIN - yaqin (kishi)

QARN - 30 yilni bildiradigan yil hisobi. Ba’zan keng ma’noda “**asr**” ma’nosini ham bildiradi

QAROBAT - yaqinlik

QAROL - xizmatchi, yugurdak

QAROMUG‘ - yovvoyi o‘simlik turlaridan biri

QAROQLARI - qorachug‘lari

QAROG‘ - ko‘z qorachig‘i

QARQARO O‘TAG‘ASI - podsholik jig‘asi

QARSOQ - tulkidan kichikroq yirtqich

QASABA - qishloq; aholi yashaydigan kichik joy

QASIDA - madhiya, marsiya

QASMISHIN - qasrda o‘tirish

QASRI RAFI - yuksak qasr

QASSOMI AZAL - taqdirni belgilovchi, taqsimlovchi

QAT - Kesish, uzish, kerish; 2. Yo‘l yurish

QAT’ EDUB - bosib o‘tib

QATIL - o‘ldirilgan, so‘yilgan

QAT'I SILAYI RAHM - qarindosh-urug‘ning oldidan o‘tmasdan

QATRAYAM NOCHIZ - arzimas qatra

QAVI QUDRAT - kuchli, quvvatli

QAVIY - kuchli

QAVM-U XAYL - yaqinlar, atrofidagilar

QAYD - sirtmoq, band, kishan

QAZO - o‘lim

QAZOQ - erkin, bo‘ysunmas, qochqin

QAZOYI YAZDONIY - Tangri buyurgani, Yaratgan irodasi

QIBLA YONI - qiblagaga yoni

QILQI - qilig‘i

QIRG‘ILACH - qaldirg‘och

QIRMIZI MAXMAL - qizil baxmal

QIROQ - qirg‘oq, chet

QISIN - qilsin

QIT’A - she’rning bir turi

QIT’A-QIT’A - parcha-parcha, bo‘lak-bo‘lak

QITMIR - quv, shum

QIY - qo‘y qumalog‘i

QIYL-U QOL - gap-so‘z

QIYOM - tush

QIYOR - qirqish

QOBSAMOQ - o‘rab olmoq, qo‘rg‘amoq

QODIR - kuduratli, kuchli

QOHIR - qahr-g‘azab ko‘rsatuvchi, qahrlangan

QOMUS - mukammal, to‘liq (lug‘at)

QONUN - maxsus musiqiy asbob

QOPUNGDA - eshicingda

QOQIM - terisi mayin, oq junli hayvon terisidan tikilgan po‘stin

QOQIM-U SINJOB KISH - silovsin, qunduz terisidan po‘stin

QORALAB - mo‘ljallab, chamarlab, yashirinib

QORUN - behisob boylik jamlagan xasis boy, xasisligidan uni yer yutgan

QOSID - xabarchi, so‘zlovchi

QOSIR - qusur, qisqa, kalta, kuchsiz, ojiz

QOTILISH - qo‘shilish

QOTIMDO - yonimda

QOTING - olding, yoning

QOTMOQ - qorishtirmoq

QOYIM - teng, baravar

QOYIN - joy nomi

QOZ - g‘oz

QUBUR - qabrular, go‘rlar

QUDEM - qadamning ko‘pligi

QULLOB - qarmoq, ilmoq, changak

QULON - cho‘l kiyigi; ovlanadigan bir xil hayvon, yovvoyi eshak

QULOQ YOLQISHI - quloq qizishi

QULZUM - dengiz

QUMOSH - tovar, kiyim

QURB - yaqinlik, yaqin bolish

QURRATUL AYN - ko‘zning oq-qorasi; ko‘z ravshanligi, ko‘z qorachig‘i

QURSOQ - qorin; nonxo‘r ma’nosida

QURTULMOQ - qutulmoq

QURURG‘AYIB - qurib

QUSAM IBN ABBOS - sahobalardan; Muhammad payg‘ambarning amakivachchasi

QUTBI TARIQAT - tariqat tayanchi

QUSH UYQUSI - kuzatgan bo‘lsangiz, qushlar charchaganida ko‘zlarini yumib ozginagina uxbab olishadi (insonlarda uyqusizlik tushuniladi)

QO‘PUB - turib

QO‘QIMOQ - ifloslanmoq, tartibsizlik

QO‘LDOSH - yordamchi

QO‘LNI HAMOYIL ETMOQ - quchmoq

QO‘MLADI - cho‘ktirdi

QO‘NOQ - mehmon

QO‘NOLG‘A - qo‘nish joyi, qo‘noq ma’nosida

QO‘PMOQ - ko‘tarilmoq, o‘rindan turmoq

QO‘PORMOQ - tiklamoq, solmoq

QO‘ZUTTI - qo‘zg‘atdi

QO‘SH - qadah

R r

RABOCHIYGA KETISH - urush ortidagi ishlarga (mardikorlikka) olib ketish

RAFIQ - do‘s, og‘ayni, o‘rtoq

RAFTOR I - yurish

RAFTOR II - yuz

RAGI - tomir, qon tomiri

RAHIL - jo‘nash

RAHN - garov

RAHNAMOY - yo‘l boshlovchi

RAHRAV - 1. Yo‘l boshlovchi; 2. Yo‘lovchi, sayohatchi

RAHZAN - yo‘lto‘sar, qaroqchi

RAIYAT - xalq

RAIYATNAVOZ - xalqparvar, fuqaroparvar

RAM - cho‘chimoq, hurkmoq

RAMAQ - jon chiqardagi nafas, oxirgi nafas
RAMIDA - hurkkan, cho‘chigan, qo‘rqqan, hurkib qochgan
RAM QILMOQ - cho‘chib qochmoq
RAMZ - shartli belgi, ishora, simvol
RANBUR - o‘zgartmoq, molamoq
RANGI PANO - rangi o‘chgan, qonsiz
RANGIN - alvon, qizil; rangdor, tovlanib turadigan; go‘zal
RANJ - mashaqqat; ozor, alam; mehnat
RA’NO - 1. Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik
va uning sariq yoki qizil xushbo‘y guli; 2. Go‘zal,
barno
RANXA - Sirdaryoning «Avesto »dagi nomi
RAOYO - xalqlar
RAQAM QILMOQ - yozmoq, bitmoq
RAQOBAT - bellashuv, kurashuv
RASAD - observatoriya
RASAN - ip, chilvir, arqon
RAVNAQ - o‘sish, rivojlanish
RAVO - munosib
RAVON I - jon, ruh; tiriklik
RAVON II - yuruvchi, boruvchi, ketuvchi; oquvchi
RAVON ETTI - yubordi, jo‘natdi
RAVONIM - jonim
RAVZA - bog‘(jannat); mozor, ziyyaratgoh
RAVZADEK - jannatdek
RAVZAYI RIZVON - jannat bog‘i
RAXNA - 1. Yoriq, darz; 2. Raxna solmoq - putur
yetkazmoq, tagidan zil yetkazmoq
RAXSH - juda chopqir ot: olachipor, chiroyli ot
RAXT - uy asbob-anjomni, kiyim-kechak; yuk
RA’YI SAVOB - to‘g‘ri fikr, savobli mayl
RAYOHIN - rayhonlar

RAYON - lotincha «rayon» so‘zidan, «tuman» ma’nosini anglatadi

RAZIL - razolat

RAZM - olishuv, jang

RAZMGOH - urush, jang maydoni

RAZMOVAR - usta jangchi

RAZM-U KO‘SHISH - dushmanlik harakatida

RAZOLAT - razillik, pastkashlik, tubantik

RAXSH - juda chopqir ot: olachipor, chiroyli ot

REZUME - qisqa xulosa

RESH - yara, jarohat; hasrat, g‘amginlik

RESHA - ildiz, tomir

RIBO - pulni foizga qo‘yish

RIDO - ruhoniylar bo‘yniga solib yuradigan oq ro‘mol

RIF’AT - yuksaklik, baland martaba

RIFQ - lutf

RIJO - umid, tilak

RIKOB - 1.Uzangi; 2.Farmon; 3.Band; 4.Shoh huzuri

RIND - mayxo‘r

RIND SARXAYLI - rindlar sardori

RIQOB - uzangi

RISH - soqol

RIYO - ikki yuzlamachilik

RIYO-VU KIZB AHLI - riyokor va yolg‘onchilar

RIYOZ - bog‘

RIYOZAT - mashaqqat

RIZVON - bog‘; jannat

RISHI XAR - eshak soqoli demakdir

RISHTA - 1. Ip, arqon; 2. aloqa, munosabat

RISHVA - pora

ROH I - yo‘l

ROH II - may

ROMI - otuvchi; harakatdagi otliq askar; nayzador, nayzali

ROQIM - xat yozuvchi, kotib

ROST - to‘g‘ri, to‘g‘rilash, tuzatish

ROSTNAVIS - haqiqatni yozadigan

ROY - fikr, o‘y, ra’y

ROYGON - tekin, yo‘ldan topilgan

ROYIHA - yoqimli hid

ROZ - sir

ROZDOR - sirdosh

ROG‘IB - moyil

RUB’I MASKUN - yerning to‘rtadan biri; yer yuzining inson
yashaydigan obod maskani

RUD - ariq, daryo

RUH - inson ruhi (jismga qarama-qarshi qo‘yiluvchi ilohiy
narsa bo‘lib, inson o‘lgach, u tanani tark etadi)

RUHAFZO - ruhni yayratuvchi, ko‘ngilni quvontiruvchi,
jonbaxsh

RUHPARVAR - ruhlantiruvchi, parvarishlovchi; yoqimli

RUJU’ - 1. Qaytish; 2. Murojaat; 3. Yuklash

RUKU - bukilish; namozda ikki bukilib turish

RUST - mahkam, berkik

RUSTAXEZ - g‘avg‘o, to‘polon, qiyomat

RUSTOIY - qishloqi; majozan: nodon, ahmoq

RUSTOXEZ - g‘avg‘o, to‘polon; qiyomat

RUSULI MURSALIN - yangi shariat keltirgan payg‘am-
barlar

RUTBA - martaba, daraja

RUX I - yuz, chehra

RUX II - shaxmat donasi

RUXSOR - yuz, chehra

RUXSORA - yuz

RUXSORI MOH - oy yuzli, yuzi oyday

RO‘YI JAHON - yer yuzi

RO‘YI ZARDIM - sarg‘aygan yuzim

RO‘Z-SHAB - kun-tun, erta-kech

RO‘Z - kun

RO‘ZGOR I - daraxtlarning har bir yashil bargi, shoir nazarida bu turfa olamning varaqlaridir

RO‘ZGOR II - turmush, tirikchilik, kun kechirish

RO‘ZI - nasiba, tiriklik vositasi

RO‘Z-SHAB - kecha-kunduz

S s

SA’B - qiyin, og‘ir

SABNOMA - so‘kib, tahqir qilib yozilgan xat

SABO I - sharqdan esadigan tong shamoli

SABO II - Sulaymon payg‘ambarning sevgilisi Bilqis yashagan afsonaviy shahar nomi

SABOHI - ertalab

SABOQ - 1.Dars; 2.Ibrat bo‘lib xizmat qiladigan voqeа, hodisa

SABOVAT - yoshlik, navqironlik

SABT - mahkam turish; yozish, qayd etish

SABU - kuvacha, may idishi

SABUHIY - tong saharda ichiladigan may

SABUKBOR - yuki yengil, yengil, chaqqon

SABUKSAYRE - tezyurar

SABUR - chidamli, sabrli

SABZA RAYHONIY - rayhon hidli sabza

SABZALIQ - ko‘m-ko‘k, o‘tloq

SABZPO‘SH - yashil kiygan, yashilga burkangan

SABZ-U XURRAM - yashnaganlik

SAD - 1. To’siq, devor, g’ov; 2. Yuz (100)

SADAF - dengiz shillig‘i, marvarid qobig‘i
SADDAQ - rost
SADO - ovoz, tovush
SADOQ - o‘q-yoy xaltasi, o‘qdon
SAFHA - bet
SAFO - 1. Tozalik, musaffolik, soflik; 2. Huzur, gasht
SAFOIYA - soflik, pokizalik
SAFOL - idish
SAFSHIKAN - saflarni buzuvchi qahramon
SAHBO - qizil may
SAHFA-YU XOMA - qog‘oz va yozg‘ich
SAHL - yengil, oson; oz
SAHOBA - Muhammad payg‘ambar tarafdarlaridan
SAHV - xato, yanglish; unutish
SAHV UL -QALAM - qalamning xatosi
SAJDA - 1. Ibodatda bosh qo‘ymoq; 2. Bosh egmoq, tiz cho‘kmoq
SALLOH - qassob
SALOH - 1. Chora, yaxshilanish; 2. To‘g‘ri, ma’qul
SALOM OG‘ASI - saroydagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amaldor
SALON - bazmxona
SALOTIN - sultonlar
SALOYI OMA - ommaga ovoza, xalqqa targ‘ib
SALSABIL - jannat arig‘i, bulog‘i
SALTANAT - biron bir hukmdor qo‘l ostidagi mamlakat
SAMAND - saman ot, tezyurar va chiroyli ot
SAMAR - meva; foyda; natija
SAMARA - natija, oqibat; meva
SAMOVOT - samolar, osmonlar
SAMUM - haroratli issiq shamol, qattiq garmsel
SANAM - go‘zal

SAN'AT KUZATUR - san'atni ko‘zlaydi, san'atbozlik qiladi

SANDAL - xush isli daraxt

SANDILACH - sa'va (qush)

SANDON - temir kunda

SANDUG'ACH - bulbul

SANGBAST - mustahkam

SANGINDIL - ko‘ngli qattiq

SANGI XORA - qattiq tosh

SANGPUSHT - toshbaqa

SANGSORA - toshbo‘ron qilingan

SANGTAROSHLIK - tosh yo‘nishlik

SANKSIYA - qonun yoki shartnomani buzgan tomonga ko‘riladigan chora, jarima

SANO - maqtov, madh

SAQAR - do‘zax

SAQF - shift, gumbaz; majoziy ma’noda osmon

SAQOQ - iyak

SAR - bosh

SARAFGANDA - bosh egdi, bo‘ysundi

SARAFROZ - yuksak, hammadan ustun; ulug‘vor; xursand, quvnoq; umrbod

SARATON - 1. O‘n ikki burjning biri; 2. Shamsiya hisobida to‘rtinchi oyning arabcha nomi (22 iyun-21 iyul); yoz faslining eng issiq pallasi

SARBALAND - baland turish, ko‘rinib turish

SARBON - 1. Karvonboshi, karvon. 2. Yo‘lboshchi, rahnamo

SARD - sovuq, xunuk

SARDOBA - usti gumbaz shaklidagi bekitilgan sun’iy hovuz

SARF - morfologiya

SARFAROZ - baland, yuksak, hammadan ustun

SARGASHTALIK - boshi aylanganlrk, sargardonlik, hayronlik

SARHAD - chegara

SARI KO‘Y - ko‘cha boshi: ma’shuqa dargohiga yaqin joy

SARIR - taxt

SARJIN - yer o‘lchov birligi

SARKASH - o‘jar, bosh bermas, qaysar

SARKO‘B - bosh yanchuvchi, uruvchi

SARMAD - abadiy

SARMAST - mast, sarxush

SARMOYA - asosiy moya, manba, asos, boylik

SARNAVISHT - taqdir

SAROMAD - ilg‘or, usta

SAROMADI - oldingisi

SAROPO - boshdan-oyoq

SAROY I - mamlakatning qirol yashaydigan joyi, qasr

SAROY II - Saroy shahri, Oltin O‘rda

SARRISHTAI AYSH - maishat

SARROF - pul almashtiruvchi

SARSAR - kuchli va qattiq shamol

SAR-U SOMON - azizlik va xorlik ma’nosida

SARV - doim yashil rangda bo‘ladigan baland bo‘yli, tik daraxt (mumtoz adabiyotda yorning qaddi-qomati sarv daraxtiga qiyoslanadi)

SARVAQT - yo‘qlov, yo‘qlab kelish, ko‘rishga kelish

SARVI OZOD - baland qad .

SARVI SIHI - to‘g‘ri o‘sgan sarv

SARVINOZ - sarvqomat

SARV-U SANUBAR - chiroyli daraxtlar turi

SARZANISH - koyish, sazo berish; tanbeh; haqorat

SARSHOR - limmo-lim, boshdan oshib to‘kulguday

SARCHASHMAYI HAYVON - obi hayot bulog‘i
SAVDO AHLI - ishq ahli
SAVDODA - mojaroda, ishda
SAVIYA - shaxs, narsa yoki hodisaning taraqqiyot darajasi
SAVOBIT - turg‘un yulduzlar
SAVOD - qora
SAVOHIL - sohillar, qirg‘oqlar
SAVSAN - gulning bir turi, safsargul
SAVT - ovoz; ohang, kuy, maqom
SAXO - saxiylik
SAXOVAT - saxiylik
SAXT - mustahkam, juda
SA’Y - g‘ayrat, harakat
SAYD - ov, shikor, ov qilish; o‘lja
SAYDI MUROD - murod ovi
SAYHA TORTISH - faryod chekish, chinqirish
SAYYOD - ovchi
SEB - olma
SEMIZKAND - boy shahar
SEPECH - uch o‘ram
SERINMOQ - sabr qilmoq, o‘ylamoq
SETOR - musiqa asbobi
SIBIR QILIB YUBORADI - Rossiya hukumati jazoga mahkum odamlarni sovuq Sibir o‘lkasiga surgun qilardi
SIBO - yirtqich hayvonlar
SIDQ - to‘g‘rilik
SIDQ BILDI - chin bildi
SIDRA-U TUBI - ilohiy daraxt nomi
SIFLA - past, pastkash, xasis
SIFORISH - mehribonlik, hurmat

SIFOTI(N) - sifatlarini

SIHI - tik, baland

SIJANJAL - oyna, ko‘zgu

SILK - qator, saf

SILMASMU - silamasmu

SILOH - qurol-yarog‘

SILSILA - zanjir; tizma; tartib

SIMIYODUR - asossiz va mavhum «ilm»ning nomi

SIMOT - dasturxon

SINJOB - silovsin to‘n

SINKRETIK - aralash

SINLAMOQ - chamalamoq, tanimoq

SINON - nayza uchi, sanchiluvchi

SIPAHLAR - lashkar yubordi

SIPAND - isiriq, isiriq urug‘i

SIPEHR - osmon, osmon gumbazi; falak

SIPOH - askar, amaldor

SIRACH - kosiblar ishlata digan yelim

SIRISHK - ko‘z yosh

SIRISHT - yaratilish

SIROYAT - ta’sir, ichiga o‘tish, yuqish

SIRPO‘SH - o‘zganing sirini ochmaslik

SITAM - zulm

SITAMDIYDA - azob chekkan

SITEZ - kek; zulm; urush

SIYM - kumush, kumushdan

SIYMBAR - oqbadan, go‘zal

SIYMINBADAN - kumushbadan

SIYM-U ZAR - kumush va oltin

SIYNA - ko‘krak

SIYNASO‘Z - siynani (yurakni) kuydiradigan, o‘rtaydigan

SIYOQ - bashara, aft

SIYRAT - xulq-atvor, odat, ichki olam
SOBIR - sabrli
SOBIT - mustahkam, og‘ishmas
SOFIY - sof, toza, soflik, tiniqlik
SOHIBI JOHLAR - mansab, mulk, davlat egalari
SOHIBI RA’Y - aql-u tadbir egasi
SOHIBIY - uzum turi
SOHIBQIRON - baxtli yulduz egasi, saodatli shoh
SOHILI BAHR - dengiz sohili
SOHIR - sehrgar
SOKIN - turuvchi
SOMI - eshituvchi
SONIY - ikkinchi
SONMOQ - bilmoq, hisoblamoq
SOQ - tana, jism
SOQIY - may quyuvchi, kosagul
SOR - qarchig‘aylar turiga mansub yirtqich qush
SORBON - tuyachi, tuya yetaklovchi
SORI - sari, tomon, taraf
SOTIR - berkituvchi, yashiruvchi
SOVUQ SHAMOL YEMAGAN - shashti qaytmagan, og‘ir gap eshitmagan
SOYIM - ro‘zador
SOYIR I - boshqa, o‘zga
SOYIR II - sayr qiluvchi, sayyoh
SOG‘AR - may, qadah
SOG‘ARKASH - may ichuvchi
SOG‘IN - qadah; sog‘inmoq, o‘ylamoq
SOCHI KAMAND - sochi arqon. Mumtoz adabiyotda yorning ikki o‘rim sochi dor, sirtmoq ma’nosida qo‘llangan
SU - suv

SUBH - tong payti
SUBHAYI SADDONA - yuztalik tasbih
SUBHI ALAST - erta tong
SUBHIDAM - tong
SUBH-U MASO - erta-kech
SUD - foyda, manfaat, naf
SUDMAND - foydali, nafl
SUDO - bosh og‘rig‘i
SUFT - teshik, teshik qilish
SUHAYL - yorug‘ yulduz nomi; yigitning ismi
SUKUN - tinch, osoyish
SUKUN-U MURUR - turish va yurish
SULAYMON - qadimgi yahudiy podsholaridan
SULTONI ORIFIN - oriflar sultoni
SUMALAK - qotgan muz
SUMANBAR - go‘zal, oqbadan, sevgili
SUMANBO‘- suman hidli, xushbo‘y
SUMMA - so‘ng
SUN - daryo nomi
SUN’ - yaratilish
SUNBUL - xushbo‘y va gullari halqa-halqa giyoh.
Qizlarning sochiga nisbat beradilar
SUNBULA - 1. O‘n ikki burjning biri; 2. Quyosh yili
oltinchi oyining arabcha nomi (22- avgust-
21- sentabr)
SUNMOQ - cho‘zmoq; **ilik sundi** - qo‘l cho‘zdi
SUNNAT - yo‘l, ravish. Muhammad alayhissalomning yo‘li
va qilgan ishlari
SUQATOY - ochko‘z, nazari past
SUQSUR - ko‘lda yashaydigan qush
SUR - shodlik, bazm
SURALAY - patlari rang-barang qush turi

SUROHI - qadah

SUROHIY - shisha, may quyiladigan idish

SURUD - qo'shiq

SUST - bo'shatilgan, yechilgan, ochilgan

SUTUH - sathlar, tekisliklar

SUTUN - ustun

SUUBAT - dahshat, to'polon; qiyinchilik

UVORI - otliq

SUXAN - so'z

SUXANVARLIK - so'zga ustalik, ijodkorlik, go'zal
so'zlilik

SUYURG'AB - mukofot

SUYURG'OL - podshoh tomonidan beriladigan imtiyozlar

SVEJIY (ruscha) - yangi, unutilmagan ma'nosida

SO'FIY - tasavvuf tariqati namoyandası

SO'G - motam, aza, musibat, o'lim

SO'GVOR - qayg'uli, hazin

SO'K - tozalangan tariqdan qilingan ovqat

SO'NGAK - suyak

SO'QA - yer haydashda ishlatiladigan cho'yan tishli asbob

SO'YDILAR - yechdilar

SO'Y I - suv

SO'Y II - tomon

SO'ZON - kuygan, yongan

SO'Z-U GUDOZ - kuyib-yonish

SO'G'ISH - jang

T t

TAAB - mashaqqat, qiyinchilik

TAALLUQ - bog'langanlik

TAAMMUL - teran o'ylash, kamoli diqqat bilan fikrlash

TAASSUF - afsuslanish

TAB' - fe'l-atvor, tabiat; iste'dod

TABIB - shifokor

TA'BIYA - joy

TABLA - ot boylanadigan joy

TA'BPAZIR - ta'biga mos

TABQU I - xizmat

TABQU II - yoningda, vaslingda

TADORIK - iloj

TAFAHHUS AYLAMAK - tekshirmoq, surishtirmoq, teran o'rganmoq

TAFARRUJ - sayr

TAFOVUL - yaxshilik foli, bashorati

TAFOVUT - farq

TAFOXUR - faxr, faxrlanish

TAFRIQA - ayirish, bo'lish; o'rtaga nizo tushishi

TAFSIR - sharh, izoh, tushuntirish

TAHAMMUL - sabr, bardosh, chidam

TAHARRUB - yaqinlashish

TAHARRUK - qimirlash, harakatlanish

TAHAVVUR - telbalik, o'ylamay ish tutishlik; botirlik, jasorat

TAHAYYUR - hayratlanish

TAHIYYAY - 1. Salom, duo; 2. Tiriklik berish; 3. Hozirlash

TAHOSHI - chekinish, tortinish

TAHQIQ - biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish

TAHRIK - harakatga kelish, qo'zg'alish

TAJALLI - jilo, jilvalanish, yarqirash

TAJAMMUL - zeb-ziynat

TAJARRUDPESHA - aloqasizlik, chetlanish, hamma narsadan kechish, yolg'izlik

TA'JIL - jadallik, tez, shoshilish

TAJNIS - shakldosh so‘zlardan foydalanish san’ati

TAKALLUF - 1. Ortiq darajada hurmat va e’tibor ko‘rsatish, mulozamat; 2. Ziynat, pardoz

TAKALLUM - so‘zlash, gapirish

TAKBIR - allohni ulug‘lash

TAKOVAR - yo‘rg‘a ot

TAKYAGOH - suyanchiq

TAKYA QILGAN - suyangan

TALAB AYLADI - xohladi, ixtiyor etdi, bormoqchi bo‘ldi

TALAF - nobud bo‘lish, halok bo‘lish

TAL’AT - yuz, bet , ko‘rinish, qiyofa, husn

TALIM I - baland

TALIM II - bir qancha

TALOTUM - po‘rtana (to‘polon)

TALX - achchiq

TALXKOM - qayg‘uli, umidsiz

TAMALLUQ - yalinish, iltimos

TAMANNO - istak, xohish, orzu, niyat, tilak

TAMIZ - toza, ulug‘, asl

TAMKIN - sabr, chidash

TAMUZ - yoz, saraton

TAMUG‘ - do‘zax, jahannam

TAMG‘A I - belgi, nishona, muhr

TAMG‘A II - qo‘srimcha daromat solig‘i

TANAFFUR - nafrat

TANA’UM - rohat-farog‘atda yashash

TANAZZUL - orqaga qarab ketish,inqiroz, tushkunlik

TANBEH - koyish, ogohlantirish

TANG-TANG - tor-tor

TANOB - arqon; o‘lchov birligi

TANUMAND - kuchli

TAPONCHA - shapati, tarsaki

TAQI - tag‘in, yana

TAQRIB - yaqin; taxmin

TAQRIR - aytish, bildirish, bayon etish

TAQRIZ - yozilgan asar, maqola va boshqalarga baho berish

TAQSIR - kamchilikni ko‘rsatish; qusurli, kamchilikli

TAQVIYAT - quvvat, yordam

TAQVO - dindorlik, parhezkorlik; tasavvuf namoyandalari amalsiz taqvoni riyokorlik hisoblaydilar

TAQYA (TAKYA) - do‘ppi, bosh kiyimi (shevada)

TAR - ho‘l; yangi, toza

TARAB - xursandlik, shodlik

TARABNOK - xursand

TARABXONA - o‘yin-kulgi uyi

TARAHHUM - rahm, marhamat

TARAQQOS BOYLAMOQ - uchadigan qushday bo‘lmoq

TARHIN SOLUR - reja tuzmoq

TARIQAT - usul, mazhab; tasavvufda Haqqa yetishishning ikkinchi darajasi

TARJIH - ustunlik

TARONA - kuy, qo‘shiq

TAROVAT - yangilik, tozalik

TARROR - o‘g‘ri, kissavur

TARXON - barcha soliq va jazolardan ozod qilingan kishi

TASARRUF - boshqarish; ega bo‘lish, biror narsaga egalik qilish

TASKIN - joylashmoq, to‘xtamoq

TASNIF - bunyodga kelmoq

TATIG‘- totli

TAV‘ - mayl, xohish

TAVAHHUM - xayol, tasavvur

TAVAJJUH - yuzlanish, ko‘rinish

TAVALLO - yolvorish, yalinib so‘rash, iltijo
TAV’AMON - egizak
TAVAQQU - umid bilan qarash, iltimos
TAVAQQUF - to‘xtamoq, jim turmoq
TAVARRU - parhez qilish, tiyilish
TAVF - aylanish, yuzni surtish, ziyyarat
TA’VIZ - tumor, duo yozilgan varaqqa
TAVONO - kuchli, qudratli
TAVQ - halqa, shoda, bog‘
TAVR - tartib, odat, yo‘l, usul
AVSAN - sho‘x, o‘ynoqi
AVSANLIK - sho‘xlik, sarkashlik
TAXALLUF - ixtilof, nomuvofiqlik
TAXAYYUL - xayolga keltirish, xayol qilish
TA’XIR - achchiq, sho‘r; majozan azob-uqubat
TAXIR - oxirlandi, oxirda qoldi
TAXVIF - tahdid, qo‘rqitish
TAY AYLAB ARZ - yerni tez aylanib chiqish
TAY QILMOQ - o‘tkazmoq
TAYARON - uchish
TAYLOQ - bo‘taloq
TAYR - qush
TAZALLUM - zulmdan zorlanish, dod-fig‘on
TAZARRU - yolborish
TAZARV - tustovuq, qirg‘ovul
TAZKIRA - ijodkorlar va ayrim asarlaridan namuna
keltiriladigan to‘plam
TAZVIR - firib
TAZYIN I - bezahr
TAZYIN II - ziynatlash
TAG‘I (DAG‘I) - yana
TAG‘YIR – o‘zgarish, o‘zgartirish

TAG‘OFIL - beparvolik; g‘aflatda qolmoq
TASHKOL - shakllangan
TASHVIR - to‘lqin; falokat
TASHXIS I - aniqlay olish, diagnostika
TASHXIS II - shaxslantirish, jonlantirish san’ati
TEGRA - atrof, tevarak
TEGRU - ...gacha,... ga qadar
TEKIN I - evaziga haq to‘lanmaydigan narsa
TEKIN II - kabi, gacha
TEKMA - har qaysi, har biri
TENGIZ - dengiz
TERSAK yoki **TERSKAN** - tilga chiqadigan yara
TETRU - ro‘para, tik
TEVA - tuya
TIBBIYOT - meditsina
TIBOQ - misol
TI'DOD - sanash, hisoblash
TIFL - go‘dak, yosh bola
TILIN OLMOQ - gapiga kirmoq
TILOGU - ehtirom qilish, bag‘ishlash
TILOVAT - Qur’onni qiroat bilan o‘qish
TILURG‘OY - tilaydi
TINGJIRAMOQ - yaltiramoq, ko‘zni olmoq
TIRIZ - to‘nning yelka qismi, jiyak
TIRMIZAK - yosh, g‘o‘r bola
TIYNAT - xulq, fe’l
TIYRI BALO - baloning o‘qi
TIYRI G‘AMZA - g‘amza o‘qi
TOB - nur, jilo
TOBI - azobli, iztirob
TOBISTON - yoz fasli
TOBON - porloq, yorqin, tovlanadigan

TOBUG‘ - huzur
TOHIR - pok
TOJI MULK - mamlakat, boylik
TOLOR - shiypon
TONGLA - ertangi, kelgusi kun
TON - joy nomi
TONUG‘ - guvoh
TOPMASUNLAR DAST - qo‘llari yetmasin
TOR I - tola
TOR II - qisqa
TORI - qorong‘ilik, to‘satdan bo‘lish
TORI MO‘Y - soch tolasi
TORN - butkul, to‘liq, mukammal
TOROJ - o‘g‘irlik
TORTSA - o‘lchasa
TOUN - o‘lat, vabo
TOVUN - tegishli, qarashli, tobe
TOYIR - qush; uchuvchi
TOZA - yangi
TOSH - tashqari
TO CHAND-U TOKAY - qancha va qachongacha
TUBIY - jannat daraxti
TUFULIYAT - yoshlik, yoshlik payti
TUGAN - belgi, dog‘
TUHAF - tuhfalar, sovg‘alar
TU’MA - luqma
TUMAN - o‘n ming
TUMANDA - tubanda, quyida
TUMLUG‘ - sovuq
TUMONOTI - tumanlari
TUMOQ - bo‘yinni ham berkitadigan telpak
TUND I - kuchli, o‘tkir

TUND II - tez, g‘azabli
TUND O’LDI - kuchaydi, g‘azablandi, ko‘tarildi
TUND-U TEZ - qattiq sur’at bilan
TUR - loyiq, tekis
TURBAT - tuproq, yer, ziyoratgoh, maqbara
TURFA - qiziq; turli-tuman
TURMUCHLAB - buklab
TURRA - zulf, kokil, o‘rilgan soch
TUTMON - tutmayman, aytmayman
TUYG‘UN - 1. Sezgir, farosatli; 2. Lochinning bir turi
TUZ I - to‘g‘ri, rost
TUZ II - dala; chang, tuproq
TUZAQ - tuzoq, dom
TUZLUQ - tuzdon, tuz saqlanadigan idish
TUZUK - tuzilgan, nizom, tartib, yashash tarzi
TUZUN - ortiq, ziyoda, ko‘p
TUG‘DI - tug‘ildi
TUG‘RO - davlat ramzi, (gerb) nishona
TO‘-BATO‘ - qat-qat
TO‘L - nam o‘tkazmaydigan saqichli qalin qora qog‘oz
TO‘MA - oziq, taom, luqma, bir osham ovqat
TO‘NAR - xiralashadi
TO‘PPI - do‘ppi
TO‘QOCH - katta bo‘g‘irsoq
TO‘S - daryo nomi
TO‘SQU - boshqa, ortiqcha
TO‘SH - taraf, tomon

U u

UBUR - o‘tish, yurib o‘tish

UDUG‘ - urug‘

UFUN - sassiq; badbo‘y hidli
UJB - manmanlik
UJMOH - jannat
UKUSH - ko‘p
ULAS - yoqimli, o‘ziga tortuvchi, xumor
ULUM - ilmlar
ULUQ - ulug‘, yoshi katta
ULUS - el, xalq
UMARO - amirlar, amaldorlar
UMMON - okean, dengiz
UMOCH - uvalangan xamirdan qilinadigan suyuq ovqat
UMQI - chuqurligi
UMRI JOVIDON - abadiy yashash, boqiy umr
UMRKOH - jon azobi
UN - ovoz
UNA - unga
UNS AYLAMOQ - do‘stlashmoq
UQBO - oxirat
UQDA - bandilik, tutqun
UQOB - burgut
UR - yalang‘och
URAMUNG - izing, makoning
URUJ - yuksalish
URYON - yalang‘och, kiyimsiz
USMON - Muhammad payg‘ambardan keyingi uchinchi xalifa (644 - 656)
USTIXON - suyak
USURSA - mast bo‘lsa
UTMOQ - sayramoq
UTTILAR - yutdilar, oldilar
UYI - uxla
UYONIB - uyg‘onib

UYOQMOQ - botmoq

UYUR - bur, och

UZ DILING TAALLUQDIN - dilingni dunyo aloqasidan uz, ya’ni dunyodan yuz o‘gir

UZAMAY - uzoqlashmasdan

UZASINA - tepasiga, uzra

UZIK - yetuk, kamchiliksiz

UZLIQ - mohirlik, ustalik

UZNU - uyg‘onib

UZOR - yuz

UZURDUM - qidirmoq, izlamoq

UZV - a’zo, gavda bo‘laklaridan biri (qo‘l, oyoq kabi)

USH - shu, mana shu

USHSHOQ - oshiqlar

USHTURAK - chayqalgan

UCHAK - Xorazmda tom

UCHMAQ - jannat

V v

VADUD - g‘oyat sevuvchi

VAHDAT - yakkalik, yagonalik

VAHDAT MAYI - birlik mayi, Olloh bilan birlashish timsoli

VAHM - qo‘rquv

VA’ID - qo‘rqtish, tahdid qilish

VAJH - sohasida, xususida

VALAD - farzand, bola

VALE - “valekin” so‘zining qisqa shakli

VALIY - 1. Sodiq do‘s; 2. Murabbiy; 3. Xudoning eng sevimli bandasi

VALLOHU A’LAM - olloh bilguvchidir

VALODAT - tug‘ilish

VALOYAT - g‘amxo‘rlik

VAQF - madrasa-yu masjidlar uchun belgilab qo‘yilgan mol-mulk

VARA - ma’n qilingan ishlardan chekinish, parhezkorlik

VARAM - shish

VARAQI LOLA - lola yaprog‘i

VARD - atirgul

VARZISH - mashq, ko‘nikma, odat

VASAT - o‘rtta, markaz

VASE’ - keng, bepoyon

VASF - maqtov

VASF UL HOL - hol ta’rifi

VASILA - vosita, sabab, bahona

VASIQA - mol-mulk olingani haqida hujjat

VASOYIL - vasilalar, vositalar

VAXOMAT - qo‘rqinch, vahima, xavf

VA’Z - so‘z, so‘zlash, nutq

VAZIR - ministr, oliv mansab

VAZN - 1. Og‘irlik; 2. She‘r vazni

VERUB - berib

VIDO - xayr lashish, qaytish, dunyodan o‘tish

VISOL - aynan vasl, yetishish

VISPRAD - «Avesto» kitoblaridan biri, u namoz paytida o‘qiladigan oyat va suralarni qamrab olgan

VIZA - o‘zga mamlakatlarga kirishga berilgan ruxsatnoma

VOFIR - mo‘l-ko‘l

VOIZ - va’z o‘quvchi

VOJUN - teskari

VOLID - ota

VOLIY - hokim, hukmdor, podshoh

VOQE - paydo bo‘lish

VOQE BO'LUBTUR - joylashgan, o'rnashgan
VOQIF - xabardor
VORIS - meros egasi, merosxo'r
VOSIL ETMOQ - visolga yetkizmoq
VOVAYLO - ey voh, afsus, ey attang
VOYA - hissa, bahra, nasiba; istak, tilak; ma'naviy oziq
VUHUSH - vahshiy hayvonlar
VUQU - voqe bo'lish, yuz berish
VUQUF - voqif, xabardor
VUSLAT - yetishish; uylanish
VUSUQ - ishonch

X x

XADANG - o'q
XALAF - keyinda keladigan, o'rniga o'tadigan; avlod, surriyot
XALQAYLADI - yaratdi, vujudga keltirdi
XAM I - egri, pastga egilgan, quyi solingan
XAM II - o'ralgan, bog'langan
XAMSASANJ - «Xamsa»ni o'lchovchi, «Xamsa» yozuvchi ma'nosida
XAMUSH - indamas, jim
XANDA - kulgu, tabassum
XANDON - kuluvchi, kulib turuvchi
XAR - eshak
XARAKIRI - yapon samuraylarining or-nomus uchun o'z joniga qasd qilishi
XAROBOT - xarob yer; uzlat, go'sha, joy (mayxona)
XAROBOTIY - darvesh
XAROSH - dard, alam, azob
XAROSH - yo'nish, tirnash

XASM - dushman, raqib, muxolifat

XASSATPARVAR - xasisparvar

XAT I - maktub

XAT II - qizlar labi ustidagi tuk(mo‘ylov)

XATBOSHI - abzas

XATIB - masjidda xutba o‘quvchi

XATM ETTI - tugatti, tamomladi

XATTI OMON - omonlik, ozodlik xati

XAY - ter

XAYL - guruh, jamoa, to‘da, xalq

XAYLI FASOHAT - fasohat ahli

XAYLXONA - podshoh va a’yonlarning xotin, bola-chaqalari

XAYMA - chodir, o‘tov

XAYRI SAXO - xayr-saxovat

XAYRULJAVOD - saxiyliklarning yaxshisi

XAZINA - pul va qimmatbaho narsalar saqlanadigan joy

XAZOYIN - xazinalar

XAZRO - yashil, ko‘kimir

XEZ SOLMOQ - tez ketmoq; sakramoq

XIJLAT - xijolatlik, uyalish

XIJRIY - musulmonlarning yil hisobi; xijrat - ko‘chishdan olingan 622-yildan

XIL’AT - hashamatli kiyim

XILOF - qarshi, teskari, zid

XILQAT - 1. Yaratilish, bunyodga kelish; 2. Yaratilgan, bunyodga kelgan

XIRAD - aql, fikr; zehn, hush

XIRAD XOZINI - aql xazinachisi

XIRADMAND - oqil, dono, donishmand

XIRAT ASBOBI - oxirat uchun zarur amallar

XIRMAN - xirmon, uymoq

XIROM - chiroyli yurish, nozkarashma bilan qadam bosish

XIROMON - chiroyli yurish

XIRQA - shayx va darveshlarning maxsus ust kiyimi, janda

XISRAV - podshoh, hukmdor

XISSAT AHLI - xasislar, pastkashlar

XIZR - tiriklik suvini ichgan abadiy barhayot payg‘ambar

XOB - tush, uyqu

XOBOLUD - uyqusiragan

XOJA - xo‘jayin, sohib, ega; mulk egasi; janob

XO‘JANDIY - xv asrda yashagan o‘zbek shoiri

XOK - tuproq

XOKBO‘SING - tuproqni o‘pish. Tiz cho‘kmoq, ta’zim qilmoq

XOKI POYI - oyoqlari ostining tuprog‘i

XOKISTAR - kul

XOKROH - kamtar, xoksor

XOKRO‘B - yer supuruvchi, xizmatkor

XOKSOR - past, tuban

XOLIQ - Yaratuvchi, Olloh

XOMA - qalam

XOMUSH - kamgaplik

XONAQOH - so‘fiylarning ibodat uyi

XONAVODA - oila; sulola

XONGUSTAR - dasturxon yoyuvchi

XOR - tikan

XORMUZ - Axura Mazda

XORO - taroshlanmagan qattiq tosh

XORSIFAT - tikanga o‘xhash

XOR-U XAS - cho‘p, xas

XORUT - yerdagi ayolga oshiq bo‘lgani uchun xudo g‘azabiga uchragan farishta

XOS - alohida kishilar

XOSSA - biron narsaga tegishli, taalluqli; xususan, ayniqsa

XOSSAKI - maxsus, alohida, xos

XOVAR - Sharq, kunchiqish

XOYA - tuxum

XOSHOK - xashak, cho‘p

XUD I - albatta

XUD II - xuddi

XUD III - yoki, yoxud

XUDBIN - o‘zini yoki o‘z manfaatini hammadan yuqori
qo‘yuvchi odam

XUDROY - o‘jar, qaysar, o‘zboshimcha

XUFFOSH - ko‘rshapalak

XUJASTA - qutlug‘, muborak; baxtli

XULD - abadiylik, doimiylilik, jannat

XUMOR - mastlikning tarqalishi

XUMXONA - xumlar turadigan joy

XUN - qon

XUNBOR - qon yig‘lovchi

XUNBORA - ko‘zlaridan qon oquvchi

XUNFISHON - qon sochuvchi

XUNI DIL - yurak qoni

XUNKOR - xunxo‘r, qonxo‘r

XUNOBI ASHK - qonli ko‘z yoshi

XUNREZ - qonxo‘r, qon to‘kuvchi

XURDA - zarra, bo‘lak; oltin zarrasi

XURO‘SH - qichqirish, shovqin, g‘avg‘o

XURSHEDI RAXSHON - porloq quyosh

XURSHID - yoritib turuvchi narsa; quyosh, yorug‘lik,
mash‘al

XUSRON - zarar, ziyon

XUTUR - ko‘ngilga olish, xotirga kelish

XUSHDIR - yaxshidir

XUSHDORLIQ - xursandchilik
XUSHGUVOR - shirin, lazzatli
XUSHGO‘Y - shirinso‘z
XUSHILHON - chiroyli kuylovchi
XUSHO - qanday yaxshi
XUSH-U XIRAD - aql-u hush
XUSHXULQ - yaxshi xulqli
XO‘B - yaxshi
XO‘B BO‘LDI - yaxshi bo‘ldi
XO‘BLAR - yaxshilar
XO‘BLIQ - go‘zallik, yaxshilik
XO‘DUK - xo‘tik
XO‘RUSH - yemak, ovqat
XO‘Y - odat
XO‘SHA - boshoq

Y y

YABOB - xarob
YAKBORA - biryo‘la, birvarakayiga
YAKJIRMA QALQON - toshbaqaning yaxlit kosasi
YAKSAR - bir boshdan, butunlay
YAKSON - bir xil
YALINGUQ - kishi, inson
YALVIN - sehrli
YALG‘IL - oq yolli
YAMIN- ont, qasam, ishonch
YAMISH - meva
YAMON ANDISHALIQ - yomon fikrlilik, badniyatlik
YANGOQ - yanoq
YARILDI - ochildi
YARMOG‘ - pul

YAS - zarar
YASOQ - nizom, qoida
YAZDON - Xudo, Yaratgan
YAZIM - yoziladigan (yojiladigan) narsalar: gilam, kiygiz
YAZNA - pochcha
YAG'I - yov, dushman
YAG'MO - talon-toroj, buzg'unlik
YAG'MOGAR - yalmog'iz
YELKIN - musofir
YEMISHLAR - mevalar
YETI - yetti
YETIB - pishib - yetilib
YIG'OCH - taxminan 1200 metrga yaqin masofa
YITMOQ - bitmoq, yo'qolmoq
YITTILAR - ko'rinxmay ketdilar, yitdilar
YO - yoy, kamon
YOBI - cho'bir, qirchang'i
YOBON QUSH - yovvoyi qush
YODI - etti
YOLIN - 1. Otning yoli; 2. Yalindim; 3. Yolqin, olov
YOLQIT - zeriktirmoq, bezor qilmoq
YONA - yana
YONIB - qaytib, ketib
YONMOQ - qaytarmoq, qaytmoq
YOQTU - yorug'
YORA - yara, jarohat
YORMOQ - pul, tanga, oltin
YORO - iloj; mador, quvvat
YORG'U - 1. Yorish, maydalash, bo'laklarga ajratish;
 2. Bahs, tortishuv
YOSIN - qur'onning 36-surasi
YOSUMAN (jasmin) - gul turi

YOVA - behuda; aljirash

YOVAR - yordamchi, madadkor

YOVUQ - yaqin

YOVUSMOQ - yaqinlashmoq

YOVUTMON - yaqinlashtirmayman

YOVG'ON - go'sht va yog'siz tayyorlanadigan ovqat

YOYOQ - yayov

YOZIQ - gunoh

YOZG'IRMA - gunohkor qilma, ayblama

YOG'IR BO'LMOQ - yuk ostida yelkasi yag'ir bo'lishi,
ezilishi, zada bo'lishi

YOG'IRN - yag'rin, yelka

YOG'IY - dushman

YOG'LIG' - ro'mol, belbog'

YOSH - 1. Ko'z yosh tomchilari; 2. Yil, umr bosqichlari;
3. Yosh bola

YOSHURUN - yashirin

YUB - yuvmoq, tozalamoq

YUD - ko'tarmoq, chidamoq

YUH'YIL IZOM - so'ngaklar tirilishi, tirilish

YUKUNMOQ - 1. O'tinib murojaat qilmoq, iltijo qilmoq,
yolvormoq; 2. Ta'zim qilmoq

YULO - yolqini, olovi

YULTEK - buloqdek, chashmadek

YULUG'LA - bag'ishlamoq, fido qilmoq

YUMIRTA - Xorazmda tuxum

YUMOQ ILIK JONDIN - jondan umidni uzish, qo'lni
yuvib qo'ltiqqa urish

YUNDI - yuvindi

YURKANUR - qoplanmoq

YUSUF - payg'ambarlardan (go'zallik shu insonda jam
bo'gan)

YUZ PORA - yakson etilgan, parchalangan, bo‘laklangan

YUZ TOPISH - kirishish

YUZIDA - Jomiyning yuzida

YUZKASHIB - bezamoq

YO‘RISA - yaqinlashsa

YO‘QSUL - kambag‘al

YO‘RILMA - charchama, o‘tirma

YO‘RKASHIB - o‘ralib, o‘ralashib

Z z

ZABON - 1. Til; 2. Nutq

ZABONA - 1. Yolqin, alanga; 2. Yonmoq, alangalanmoq;
3.Til (a’zo)

ZABONOVAR - gapdon, so‘zamol, so‘zga chechan

ZABTIG‘A - qo‘lga (olish)

ZABTU RABT - tartibni maxkam tutish va intizom

ZABUN - ojiz, notavon, bechora, kuchsiz; mag‘lub,
yengilgan

ZA’F - kuchsizlik, holsizlik, kasallik

ZA’FARONI - za’faron tusli, sariq

ZAHR ARO NO‘SH - dengizning zaharday sho‘r suvi
o‘rtasidagi birdan bir ichimlik
(chuchuk suv)

ZAHRNO‘SH - har qanday achchiq gapni yutish

ZALIL - xor, tuban

ZALOLAL - adashish, yo‘ldan chiqish, gumrohlik

ZAMIMA - yomon, yaramas

ZAMIR - dil, ko‘ngil

ZAMZAM - Makkadagi buloq nomi

ZAMZAMA - xirgoyi, sekin kuylash

ZANAXDON - iyak

ZANGI - qora tanli, habash, negr

ZANGOR - zang, g‘ubor

ZANGOR(I) - och havorang, moviy

ZARBAFT - zardan to‘qilgan mato, zarbof, kimxob

ZARBZANLIQ - to‘p otuvchi (Bobur urushlarida to‘plardan keng foydalangan)

ZARD - sariq

ZARF - may (suyuqlik) quyiladigan idish

ZAR - oltin

ZARPO‘SHLIG‘ - oltin sochish

ZARQ - aldov, hiyla, makr, munofiqlik

ZARRA - moddalarning ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas kichik mayda bo‘lagi

ZAVJA - rafiqqa, qayliq

ZAVRAQ - qayiq

ZAVRAQCHA - qayiqcha

ZAXIRA - kelajak uchun g‘amlab qo‘yilgan narsa; tejalgan narsa

ZAXM - yara; ko‘ngil g‘ashligi

ZAYN - ziynat, bezak

ZEB - husn, chiroy

ZEBNOK - yasangan

ZERDAST - qo‘l ostida tutmoq, bo‘ysundirmoq

ZERI BOR - yuk ostida (qolmoq)

ZERI POY - oyoqosti

ZERO (KI) - chunki, negaki, sabab shuki

ZIH - maqtov, tahsin

ZIJ - astronomiya jadvali, yulduzlarning ko‘kdagi holati va yil davomidagi harakati aks etgan jadval

ZIKR - so‘zlash, tilga olish, bayon etish

ZIKRIYO, (ZAKARIYO) - payg‘ambarlardan biri, kofirlar zulmidan qochib daraxt ichiga

yashiringan, kofirlar daraxt bilan birga uni arralaganlarida ham xudoni tilidan qo‘ymagan

ZIL - ich

ZIMN - ora, o‘rta

ZINKIYIB - qaqqayib

ZIROAT - 1. Dehqonchilik; 2. Qishloq xo‘jalik ekinlari

ZIYON - zarar; yomonlik

ZIYORAT - 1. Muqaddas hisoblangan joyga borib sig‘inish;
2. Hurmat yuzasidan biror shaxsni borib ko‘rish

ZIG‘A - bosh kiyimga taqiladigan ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi

ZODA - avlod

ZOD-U BUDI - asli

ZOHID - tarki dunyo qilib, toat-ibodatga berilgan odam

ZOHIR - sirt, sirtqi tomon, sirtqi ko‘rinish

ZOHIR ETMOQ - ma’lum qilmoq; bildirmoq

ZOHIR QILMOQ - ko‘rsatmoq

ZOHIRDA - tashqi jihatdan

ZOL - kampir, qarigan xotin; makkor kampir; charx zoli - majoziy ma’noda: osmon, falak

ZOLI HAZIN - g‘amgin, qari kampir

ZOLI XIL’ATDO‘Z - kiyim tikuvchi joriya kampir

ZOLI ZAR - oltin kampir

ZOLIM - shafqatsiz, jabr-zulm qiluvchi

ZOOVETTEXNIKUM - zooveterenariya (hayvonlar tabibi) kolleji

ZOR - yuz, chehra

ZOYIFI - ziyoratchi, ziyorat qiluvchi

ZOYIL - so‘nish; yo‘qoladigan, yo‘q bo‘luvchi

ZOYIR - ziyoratchi

ZOG' - qarg'a

ZOG'ORA - makka unidan qilingan non

ZUAFO - zaiflar, kuchsizlar, zaifalar (ayollar)

ZUFUNUN - hunar, ilmlar egasi, ya'ni Olloh

ZUHALVASH - Zuhalga o'xshagan. Zuhal, ya'ni Saturn sayyorasi yomonlik timsoli bo'lgan.
Jobirga nisbat beriladi

ZUHD - dunyodan voz kechish, taqvodorlik

ZUHRA - sayyora nomi

ZUHRAJABIN - tong (Zuhra) yulduzidek

ZUHUR - ko'rinish

ZUHUR ETISH - ko'rinish, namoyon bo'lish

ZULF - ayollarning ikki chekkasidan tushib turadigan kokillari; umuman, ayollar sochi hijron timsoli

ZULMPESHA - zulmni odat qilmoq

ZUMRAI ROZ - ahli dillar, sirdoshlar

ZUNNOR - musulmon mamlakatlarida yashaydigan nasro-niylar beliga bog'lab yuradigan chilvir

ZURYA - surriyod, avlod

O‘ o‘

O'DAG'A - yetakchi, sardor ma'nosidagi "o't og'a"
so'zining buzilgani

O'KSUZ - baxtsiz

O'KULMOQ - TO'planmoq

O'G - 1. Aql; 2. Maqta; 3. Ulug'la

O'KUSH - ko'p

O'LURMU - bo'ladimi

O'MGAN - ko'krak, to'sh

O'MIROVLI - ko'krakdor

O‘TMAK - yemaklik, ovqat
O‘LANG - o‘t- o‘lan, giyoh
O‘LANGAMAS - o‘lganga emas
O‘LDI KO‘RMAK - ko‘rmoqchi bo‘ldi
O‘LDI TALAF - nobud bo‘ldi, talafot ko‘rdi
O‘LDUG‘UM - bo‘lganim
O‘NGUR - to‘nning etagi
O‘PQON - yer ostidagi suvni tortib ketadigan bo‘shliq
O‘Q - kiprik, boshoq - kiprikning uchi
O‘TRU - qarshi, ro‘para
O‘TTASI - ertadan keyin, indin
O‘TUN - tuban, pastkash
O‘XIYUR - aytadilar, hisoblaydilar
O‘YRULUB - aylanib
O‘Z - jon, vujud
O‘ZGA XUD BO‘LDI - o‘zgacha bo‘lib qoldi
O‘ZI - uzra, taraf
O‘ZLAK - dunyo, olam
O‘Z MAROMI - o‘z yo‘li, hiylasi
O‘G‘RAMOQ - yo‘l olmoq, mo‘ljallamoq
O‘SHAG - yolg‘on, bo‘hton

G‘ g‘

G‘ALAT - sahv, xato, yanglish
G‘AMGUSOR - g‘amni tarqatuvchi
G‘AMIN - g‘amgin
G‘AMNOK - g‘amgin
G‘AMPARVARD - g‘amga botgan, g‘amboda
G‘AMZA - ishva, ko‘zni nozli suzish
G‘AMZADA - g‘amgin, qayg‘uli
G‘AMZUDO - qayg‘uni ketkazuvchi

G'ANI - boy

G'ANIMAT - 1. Urushda yoki ovda qo'lga kiritilgan narsa, o'lja; 2. Qadriga yetish lozim bo'lgan kimsa yoki narsa

G'ANIY - boy

G'ARIB.I - 1. Hech kimi yo'q musofir; 2. Kambag'al, qashshoq, faqir

G'ARIB.II - g'aroyib, ajoyib

G'ARIB AMREDUR - ajablanarli ish

G'ARIQ - g'arq bo'lgan, botgan, cho'mgan

G'ARM - qizg'in

G'AVR - bir narsaning mohiyati; tub, qa'r, tag

G'AVVOS - suvga sho'ng'uvchi

G'AYIR - o'jar, teskari

G'AYR - o'zga, boshqa, begona, yot

G'AYRAT - rashk

G'AYRI - boshqa, o'zga

G'AYUR - jasur

G'AZOL - ohu, jayron

G'AZOLON - kiyiklar

G'INO - boylik

G'INOYI MUABBAD - ababiy boylik

G'IRRA - g'ulg'ula

G'ITALANMOQ - jonlanmoq

G'IZO - ovqat, oziq, yegulik

G'IZOL - ohu, yor ko'zlari ko'pincha ohu ko'zlariga o'xhatilgan

G'OFIL - bexabar

G'ORATGAR - talonchi, qaroqchi

G'OZA - qizil rangli elik

G'UBOR - g'ashlik, dog', chang

G'UBORI XOTIR - xotira (ko'ngil) g'ashligi

G'UL - dev

G'ULOMGARDISH - hovli darvozasi yonida qullar yashaydigan kulba

G'ULOM - qul

G'ULULA - chirmalgan, lo‘nda qilib

G'ULG‘U - judolik

G'ULG‘UL - shovqin, suvning sharqirashi

G'URBAT - 1. G‘am-g‘ussa, kulfat; 2. Musofirlik

G'URNIQ - qulf, zanjir

G'UROB - qora qush

G‘USL - cho‘milish, poklanish

G‘O‘TA - suvga sho‘ng‘ib chiqish

G‘O‘TA URISH - suvga sho‘ng‘ish

SH sh

SHABGUN - tun rangida, qop-qora

SHABISTON - tungi yotoq, xona

SHABISTON HARIMI - xilvatxona (odamlar ko‘zidan xoli joy)

SHABOB - yoshlik

SHAFIQ - shafqatli, marhamatli

SHAHBOZ - lochin

SHAHI KOMRON - baxtli shoh

SHAHNA - qo‘riqchi, soqchi, posbon (kunduzgi)

SHAHNISHIN - maxsus o‘rindiq; taxtsifat

SHAHRE - bir shahar

SHAHSUVOR - ot minishga mohir

SHAHVOR - yirik, a’lo

SHAJAR I - daraxt, og‘och

SHAJAR II - o‘t-o‘lanlar

SHAJARA - ma'lum bir urug‘ avlodlarining kelib chiqishini izchillik bilan ko‘rsatuvchi ro‘yxat, silsila

SHAKARPOSUX - shirin javob

SHAM’I ANVAR - nur sochuvchi sham (to‘g‘rilikka ishora)

SHAMMA - salgina, biroz

SHAMOMA - xushbo‘ylik

SHAMOYIL - ko‘rinish

SHAMS - quyosh, oftob

SHAMSI ANVAR - nur sochuvchi quyosh

SHAMS-U QAMAR - quyosh-oy

SHAMSHIRZAN - shamshir uruvchi

SHAMSHOD - tik o‘sadigan chiroyli daraxt

SHANG - sho‘x, o‘ynoqi

SHAR - shariat

SHAR’IY - diniy qoidaga tegishli

SHARAF UYI - Axura Mazdaning mangu makoni, jannat

SHARH - biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib berish, izohlash

SHAR’I NABI - payg‘ambar shariati

SHARIF - sharaflı

SHARM - uyat, hayo, ibo

SHAROB - kayf qiluvchi ichimliklarning umumiyligi nomi; may

SHAROR - uchqun, alanga

SHARZA - dahshatli, haybatli

SHAVQ - zo‘r havas, istak, kayf

SHAYOTIN - shaytonlar

SHAYX SAN’ON - badiiy asar qahramoni, xristian qiziga oshiq bo‘lib, din va iymondan kechgan

SHAYX-U SHOB - qari-yosh

SHAYXULISLOM - diniy ishlarni boshqaruchi yuqori mansabdor; ruhoniylar boshlig‘i

SHEFTA ZOL - telba, devona kampir
SHEVA - odat, ravish, tarz
SHIAG‘ - to‘polon
SHIFOIYA - sog‘ayish
SHIKAN - jingalak, siniqlik, bukuklik
SHIKANJ - bukilish, buralish
SHIKAST - siniq, sinish
SHIKASTA I - halqa-halqa, buramli
SHIKASTA II - majruh
SHIKOL - ot yo tuya oyog‘iga solinadigan band; tushov
SHIKOR - ov
SHIKOR ANDOZ - ov qiluvchi
SHIKVA - shikoyat, nolish
SHINOVAR - suvda suzuvchi
SHIRINKOMLIQ - shirinso‘zlik, xushmuomalalik
SHIRKAT - umumiylilik
SHIRKATANDESH - sheriklik qiluvchi, sheriklikni fikr qiluvchi
SHITOB - tezlikda, chaqqon
SHITOBON - yuguruvchi, shoshiluvchi
SHIG‘OVUL - saroy marosimlarini boshqarib turadigan amaldor
SHOBIR - darak, shivir
SHODURVON - soyabon
SHOHI OZODA - tagi toza shoh, aslzoda shoh
SHOHID - go‘zal, chiroyli
SHOHLIG‘ MAZOR - Shohi Zinda maqbarasidagi azizlar ko‘zda tutilmoqda
SHOHVOR - shohona, katta
SHOKIR - shukr etguvchi
SHOM - Suriya
SHOMIYONA - tunashga mo‘ljallangan chodir

SHOYISTA - muvofiq, munosib, loyiq, maqbul, ma'qul

SHUARO - shoirlar

SHUBON - cho'pon, qo'y chivon

SHUGUFTA - ochilgan

SHUHRAVARD - bir dasta gul

SHUHUD - ko‘z bilan ko‘ra olish; mushohada qilish

SHUJO - shijoatli, dovyurak

SHU'LA UZOR - shu'lavor yuz, nurli, munavvar chehra,
porloq jamol

SHUMORA - hisob-kitob

SHURB - ichish, ichmoq

SHURU - kirishish, boshlash

SHUSTAGAR - yuvg'ich, murdasho'y

SHUSTU - yuvish

SHUVIY - emaklab

SHUYU - tarqalish

SHUYUX - qarilar, chollar

SHUG'ULI - kirishish, shug'ullanish

SHO'R - g'avg'o, to'polon; sho'r yer

SHO'RIDA - sho'rpeshona, parishonhol, devona, savdoyi,
oshiq

SHO'RISH - 1. Azob-uqubat, kulfat; 2. Janjal, g'avg'o

SHO‘XDIN - o‘ynoqidan, go‘zaldan (qizdan ma’nosida)

CH ch

CHAKMON - movutdan tikilgan to‘n

CHALQAYRAMON - chalqancha

CHANDIKI - qanchalik

CHANT - dunvo

CHAPKON - tantanali marosimda kiviladigan to‘n

CHARGALAMOQ - oralab chiqmoq, saflanib, bu boshidan u boshigacha kezib chiqmoq

CHARX - dunyo

CHARXFARSO - ko‘kka ulangan, juda yuksak

CHARXI DUN - pastkash falak, yaramas dunyo

CHARXI MINU - zangori osmon

CHATAR - chimirmoq

CHAVATI NON - oshirilmagan xamirdan qilinadigan yupqa non

CHAVGON - koptok surib o‘ynaydigan uchi egri tayoqcha, klyushka

CHAVRULDI - aylandi

CHASHMAYI HAYVON - tiriklik, hayot bulog‘i

CHASHMAYI RAVON - oqar chashma

CHASHMI FATTON - fitna soluvchi ko‘z

CHASHMI GIRYON - yig‘lovchi (giryon), ko‘z (chashm)

CASHMI SO‘ZAN - igna ko‘zi

CASHMI TAR - ko‘zlari nam

CHEKILGAY - amalga oshirilgay, qilingay, olingay

CHEKTI - tortdi

CHENGNAMOQ - aniqlamoq

CHERIK - askar, qo‘shin

CHILON - ruscha chlen so‘zining buzilgani, a’zo ma’nosida

CHILVIR - ingichka pishiq arqon, arg‘amchi

CHIMG‘ON - o‘tloq, sabzavor

CHIMLIG‘ AZIZLAR - Turkiston tomonlarda o‘tgan avliyolar

CHIN I - tugun

CHIN II - Xitoyning Sharq mamlakatlarida qabul qilingan nomi

CHINGILIN - kelishgan, bejirim

CHINIY - chinnidan qilingan

CHIRKIN - chirk bosgan, iflos
CHIRMON - o‘ralgan
CHIG‘AY - kambag‘al, bechora
CHOBUK - sho‘x, o‘ynoqi go‘zal
CHOBUKSUVOR - chavandoz, sipohiy
CHOBUKXEZ - tez chopadigan, chaqqon
CHOH - quduq
CHOLOK - chaqqon, tetik; kelishgan
CHORDARA - to‘rt eshikli
CHOVING - ovozing
CHOVUSH - 1. Hudaychi; 2. Eshik og‘asi; 3. Xizmatkor;
navkar
CHOG‘IR - may, ichkilik, sharob
CHOSHNI - maza, ta’m, totish, mazasini totib ko‘rish,
bahra
CHUNOR - joy nomi (Hindistonda)
CHUN-U CHARO - behuda so‘z
CHUQZ - boyqush, boyo‘g‘li
CHUST - chaqqon, tez, mahkam
CHUG‘Z - boyqush
CHUCHUK - shirin
CHO‘LPON - yorug‘ tong yulduzi; Venera
CHO‘Q - ko‘p

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Фан”, I том, 1983, 1984, 1985 йиллар.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Фан”, II том, 1983, 1984, 1985 йиллар.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Фан”, III том, 1983, 1984, 1985 йиллар.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Фан”, IV том, 1983, 1984, 1985 йиллар.
5. В. Раҳмонов, Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Т.: “Ўқитувчи”, 1983.
6. Berdak Yusuf, Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – Т.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010.
7. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Т.: “Akademnashr”, 2013
8. Ўзбек тилининг имло луғати. – Т.: “Академнашр”, 2013
9. Boqijon To‘xliyev, Dilfuza To‘xliyeva, Alisher Navoiy hayoti va ijodi (albom), Т.: “Bayoz” nashriyoti, 2013.

10. N. Mahkamov, I. Ermatov, Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: “Fan”, 2013
11. Sunnat Ahmedov, Begali Qosimov, Rahmon Qo‘chqorov, Shuhrat Rizayev, Adabiyot, Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2007.
12. Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov, Shuhrat Rizayev, Adabiyot, Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik, qayta ishlangan 2-nashri, T.: “Ma’naviyat”, 2009.
13. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekov, Adabiyot, Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik, qayta ishlangan 2-nashri, T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2009.
14. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov, Adabiyot, Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik, qayta ishlangan 2-nashri, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
15. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekov, Adabiyot, Umumiyl o‘rta ta’lim maktab-

larining 9-sinfi uchun darslik, T.: “Yangiyo‘l Poligraph service”, 2006.

16. B.To‘xliyev, B.Abdurahmonova, Adabiyot, Akademik litseylarning birinchi bosqich o‘quvchilari uchun darslik(majmua), T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

17. B.To‘xliyev, R.Mirsamiqova, O.Ametova, Adabiyot, Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun darslik(majmua), T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

18. B.To‘xliyev, Sh.Isayeva, T.Shermurodov, Adabiyot, Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun darslik(majmua), T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

MUNDARIJA

| | |
|----------------|-----------|
| A | 5 |
| B | 12 |
| D | 19 |
| E | 24 |
| F | 26 |
| G | 28 |
| H | 31 |
| I | 34 |
| J | 38 |
| K | 40 |
| L | 45 |
| M | 46 |
| N | 58 |
| O | 63 |
| P | 65 |

| | |
|--|-----|
| Q | 68 |
| R | 72 |
| S | 76 |
| T | 84 |
| U | 91 |
| V | 93 |
| X | 95 |
| Y | 99 |
| Z | 102 |
| O‘ | 105 |
| G‘ | 106 |
| SH | 108 |
| CH | 111 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | 114 |

IKROMJON HABIBJONOV

**ADABIYOT DARSLIKLARIDAGI
TUSHUNILISHI QIYIN
SO‘ZLAR LUG‘ATI**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2014

| | |
|------------------------------|-----------------|
| Muharrir: | Sh.Kusherboyeva |
| Tex. muharrir: | M.Holmuhamedov |
| Musavvir: | B.Nasritdinov |
| Musahhih: | F.Ismoilova |
| Kompyuterda sahifalovchi: | N.Hasanova |

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 02.01.2014.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 6,75. Nashriyot bosma tabog‘i 7,5.
Tiraji 500. Buyurtma №1.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**